

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**LUQMON BO‘RIXON QISSALARIDA HAYOTIY
ZIDDIYATLAR BADIY TALQINI**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O‘zbek filologiyasi» ta‘lim
yo‘nalishi bitiruvchisi
Alimova Zuxra _____

ILMIY RAHBAR:
f.f.n., dots. Qurbanbayev I. _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
_____-sonli bayonnomasi «____» may 2014yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Qurbanbayev I.

DAK Q A R O R I:

ALIMOVA ZUXRAning «**Luqmon Bo‘rixon qissalarida hayotiy ziddiyatlar badiiy talqini**» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » ball qo‘yilsin.

DAK kotibi:	Qlichev N.
--------------------	-------------------

«_____» _____ 2014 yil

**Mavzu: LUQMON BO'RIXON QISSALARIDA HAYOTIY ZIDDIYATLAR
BADIY TALQINI**

REJA:

KIRISH

I-BOB. FALSAFIY KONSEPSIYANING JANRIY XUSUSIYATLARI

- 1.1. Poetik g'oya namoyishida badiiy yaxlitlikning tutgan o'rni
- 1.2. Faol estetik munosabat ijtimoiy-ruhiy asos sifatida

II-BOB. ADIB QISSALARIDA MUHIT VA INSON ADABIY TALQINI

- 2.1. Matnda shaxs va jamiyat munosabatlari ijodiy tabdili
- 2.2. Muammo hamda falsafiy-axloqiy mushohada o'zaro munosabati

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol davriga qadam qo'yarkan, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy jabhalarni tubdan o'zgartirish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilayozdi. Xalq xo'jaligi barcha yo'nalishlarida kuzatilayotgan islohotchilik jarayoni adabiy tafakkur yangilanishi konsepsiyasiga mustahkam poydevor qo'ydi. Aslida, «adabiyot so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimiz g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish»¹ davlat siyosati darajasiga ko'tarilar ekan, madaniy-qadriyaviy mezonlarga zarurat muttasil ravishda sharoit taqozosiga aylanadi. Estetik tafakkur yo'sinida mohiyat teranlashuvi, kengayishi hamda boyishi qonuniy holat hisoblanadi. Shu ma'noda, ong yordamida shakllanadigan «odamzod ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon»² badiiy tizimga daxldorlik kasb etadi.

Milliy istiqlol davri o'zbek nasri solnomasida Luqmon Bo'rixon ijodi mustahkam o'rin egallaydi. Bir qator roman, qissa va hikoyalari bilan adabiy tizim taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan adib badiiy izlanishlarida shaxs va jamiyat munosabatlarini kinoyaviy-parodik baholash, hayot haqiqati keskinligi hamda tahlil teranligini tayin etish, tasvir ruhiyatini ifoda mustaqilligiga yo'naltirish, muntazam ravishda badiiy shakl ichki intizomini «buzish»ga moyillik va uni yangi asosda qayta tiklashga intilish xususiyatlari qabarib ko'rinadi. Zotan, yozuvchi mudomi «hayotning o'zidan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etadi, o'zi qalamga olgan hayot hodisalarini, personajlar qalbi va ruhiyatini murakkabligi, ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga yetkaza oladi»³. Darhaqiqat, nosir poetik muhokamasida teran falsafiy mantiq shakliy evrilishlari, tahlil ichki taraqqiyotiga erishish istagi, so'z madaniyati

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T., “Ma'naviyat”, 2008. –B. 137.

² Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 25.

³ Normatov U.Ijod sehri. –T.: Sharq, 2007. –B. 104.

ma'rifiy-qadriyaviy tugallanmasini barqarorlashtirish yanglig' jihatlar kuzatiladi. Unda an'ana, izlanish va tajriba yaxlitligi o'zaro uyg'unlashadi. Joriy holat ijodkor tabdilida inson iroda yo'nalishi, xarakter badiiy tadriji va davr ruhiyati yaxlitligini nazariy tahlillash adabiyotshunoslik istiqbolli yo'nalishlarini belgilab beradi, deyishga to'la asos mavjud. Zero, adabiy talqinni qissa janri ijodiy miqyoslariga yo'naltirish kuzatiladigan ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, hayotiy ziddiyatlar badiiy talqinini Luqmon Bo'rixon qissachiligi nazariy-metodologik yaxlitligi aspektida o'rganish, adabiy tabdil va tasvir ruhiyati o'ziga xosligini belgilash, muallif mahorati va falsafiy konsepsiya mantiqiy taraqqiyotini ko'rsatish, estetik tanlovdan poetik idrokka o'tish taomillarini sharhlash, ifoda mustaqilligi va ijtimoiy shartlilik tig'izligini dalolatlash, yozuvchi uslubiy manerasi o'ziga xosligini aniqlash, tahlil ma'rifati hamda poetik munosabat o'zaro aloqadorligini batafsil yoritish mavzu dolzarbligini tayin etadi.

Muammo ishlanganlik darajasi. Adabiy talqin, tasvir ruhiyati va badiiy ifoda zichligi adabiyotshunoslikda muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, poetik g'oya har bir ijodkor fitratida jiddiy yangilanishi ilmiy ehtiyojlarni hosil qiladi. Ayni paytda, muntazam o'zgarishga moyil qissa janri davr ruhiyati va axloqiy mezonlar barqarorligini yaxlit ifodalashga zamin hozirlaydi. Tadqiqot badiiy shakl intizomi o'ziga xosligini nazariy jihatdan umumlashtirishga yo'naltirilgan. To'g'ri, epik turga mansub janr taraqqiyot tamoyillari keng tadqiq qilingan. Ilmiy manbalarda poetik shakl o'ziga xos jihatlari, badiiy-estetik mohiyati tahlilga tortiladi.

Binobarin, o'zbek adabiyotshunosligida joriy masalalar atroflicha yoritilgan. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, H.Umurov, B.Sarimsoqov, Y.Solijonov, B.Nazarov, Q.Yo'ldoshev, A.Rasulov, A.Rahimov, D.To'ryev, D.Quronov, H.Karimov, H.Boltaboyev, U.Jo'raqulov, B.

Karimovlar kuzatishlarida muammo u yoki bu qirralari o'rganilgan¹. Biroq, bu nazariy manbalar hech birida hayotiy ziddiyatlarning badiiy talqini Luqmon Bo'rixon qissalari timsolida tekshirilmagan. Binobarin, bitiruv malakaviy ishda qissa janriy o'ziga xosligi hamda poetik shakl umumiy mohiyati ilk bor maxsus o'rganilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishdan ko'zlangan asosiy maqsad hayotiy ziddiyatlar badiiy talqinini Luqmon Bo'rixon qissalari misolida nazariy umumlashtirishdan iborat. Unda ijodkor adabiy tabdili o'ziga xosligi janriy imkoniyatlar bilan aloqadorlikda tekshiriladi.

Tadqiqot vazifalari. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- Luqmon Bo'rixon qissalarida kuzatiladigan uslubiy tendentsiyalar badiiy intizomini ko'rsatib berish;
- poetik g'oya va hayot haqiqati o'zaro uyg'unlashuvini ijodkor adabiy talqini vositasida tavsiflash;
- kinoyaviy-parodik usul yordamida real voqelikni estetik baholash mezonlari o'ziga xosligini yoritish;
- matnda tasvir vositalari: piching, kesatiq va kinoya tutgan vazifaviy o'rni hamda ahamiyatini aniqlash;
- adabiy talqin falsafiy salmog'ini kuzatish;
- yozuvchi qissachiligi janriy mansubligini nazariy dalolatlash;
- shakl va mazmunaro yaxlitlikda davr ruhiyati hamda estetik ideal mushtarakligini ochib berish;
- badiiy niyat yuzaga chiqishida adabiy mahoratni belgilashdan iborat.

¹ Qo'shjonov M. O'zbek qissachiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari // Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. Birinchi jild. – T.: Fan, 1991.-B.299-382 va boshq; Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor (Mashhur kishilar hayoti). – T., 1978; Cho'lponni anglash. –T.: Yozuvchi, 1994. Kelajakka chorlovchi qissa// O'zbekiston madaniyati, 1995 yil; Mamajonov S. Uslub jilolari. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972; Normatov U. Nasrimiz an'analari. –T., Fan, 1991. O'tgan kunlar hayrati. – T.: 1997; Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma'naviyat, 200; Tafakkur yog'dusi. – T., 2005; Umurov H. Badiiy ijod asoslari. O'zbekiston. –T., 2001. Rahimov A. O'zbek romani poetikasi (syujet va konflikt): Filol. Fanlari d-ri. Diss. ... avtoref. –T.: 1993. ; Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z. –T.: «Yangi asr avlodi». 2006. 458-b. Qur'onov D. Cho'lpon nasri poetikasi . –T.: «Sharq». 2004. 298-b..

Tadqiqot obekti: Milliy istiqlol davri o‘zbek adabiyotida badiiy tafakkurni yangilashga intilayotgan iste’doli yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning «Xizr ko‘rgan yigit» (2009), «Bir tomchi yosh» va «Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi» (2014) qissalari bitiruv-malakaviy ishning obekti vazifasini bajaradi.

Tadqiqot predmeti: Luqmon Bo‘rixon qissalarida badiiy talqin va adabiy mahorat o‘ziga xosligini o‘rganish ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Badiiy talqin, ifoda malakasi va janr tabiati taraqqiyoti adabiyotshunoslik tizimida muayyan yo‘nalishlar aspektida o‘rganilgan bo‘lsa-da, Luqmon Bo‘rixon qissalari poetik tadriji misolida maxsus tadqiq etilmagan. Mavzuning ilmiy yangiligi, avvalo, muammoning ilk bor maxsus tarzda, shakllanayotgan yangicha nazariy-estetik qarashlar asosida o‘rganilayotganligida qabarib ko‘rinadi.

Ishda masalaning quyidagi jihatlari yoritiladi:

- adabiy talqin o‘ziga xosligi umumiy va xususiy qirralarini tavsiflash;
- piching, kesatiq va kinoya kabi tasvir vositalarining yozuvchi ijodiy niyatiga daxldorligini asoslash;
- adabiy talqin falsafiy salmog‘ini nazariy umumlashtirish;
- adabiy mahorat va uslubiy qo‘llanmaaro janriy tafovutlarni belgilash.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki asosiy bob, to‘rtta fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ko‘rsatkichidan iborat.

I-BOB. FALSAFIY KONSEPSIYANING JANRIY XUSUSIYATLARI

1.1. Poetik g'oya namoyishida badiiy yaxlitlikning tutgan o'rnini

Istiqlol davri o'zbek nasri halqasida o'z hikoya, qissa va romanlari bilan e'tibor qozongan Luqmon Bo'rixon badiiy izlanishlari salmoqli o'rin tutadi. Qahramon shaxsini badiiy detallashtirishga moyillik, inson va muhit ziddiyatlarini kinoyaviy-parodik baholashga intilish hamda hayotiy muammolar falsafiy teranligini ta'minlash ijodkor adabiy talqini o'ziga xosligini ta'minlaydi. Adib «Jaziramadagi odamlar» romanida poetik g'oya tahlil va talqinni bir-biriga qorishtirib yuborish vositasida namoyon qiladi. Badiiy to'qimaga singdirilgan kinoyaviy nutq mustaqil ijodiy vosita sifatida tasvirni to'liq boshqaradi. «To'y-vecher» boshlanishi, «chaqirilgan-chaqirilmagan mehmonlar», «kelishtirib-kelishtirib terib qo'yilgan idishlar» muallif bayonini ifodalash barobarida piching-kesatiqli munosabatni ham gavdalantiradi. Muallif adabiy mahorati tafakkur miqiyoslariga tahlil imkoniyatlarini singdira olganligida qabarib ko'rinadi. Har bir jumla qatidan sizib chiqadigan mushohada jonliligi yengil yumor hissini jilvalantiradi. Uzun-yuluq mushohadalar garchand tasavvur tarqoqligini hosil qilsada, umumiy mantiq yaxlitligiga rahna solmaydi. Holat badiiy sintez (tavsif-muhokama)ni dalolatlaydi:

«Ular bir vagon uyda yashashadi. Dilshodbek, Alibek, Shojalol va Ikromiddin. Xo'b topishgan-da, shu to'rtovlon. Bir mayizni qirq bo'lishmasa-da, to'rt bo'lib yeyishadigan do'stlar. Ammo bashara tugul, fe'l-atvorlari ham har xil. Sapcha yuz, qirra burun, manglay sochlari to'kila boshlagan haydovchi Alibek, xuddi usta Dilshodbekday xiyla xushchaqchaq, hazil-huzilni yoqtiradi. Shojalol ham avtosamosovolchi. Savatdek hurpaygan sochlari-yu taqa mo'ylovi uni anchayin qo'rs, jahldor ko'rsatsa ham, aslida yuvosh, ko'ngilchan inson. Shovshuv, oldi-qochdilarni sira yoqtirmaydi. Ahyon-ahyon uyidagi kabutarlarni xo'rsinib eslab turadi, xolos»¹.

¹ Bo'rixon L. Temir yo'l. –T.: «O'zbekiston». 2009. –B. 33.

«Temir yo‘l» romanida publitsistik ohang ancha teranlashadi. Asarda yetakchi badiiy vositalar (piching, kesatiq, kinoya) ifoda aniqligiga bo‘ysundiriladi. «Savatdek hurpaygan sochlar», «taqa mo‘ylov», «biqqi semiz», «kallasi tarvuzdek dum-dumaloq... jasadga yarasha fe‘l-atvor» romandagi «antiqa to‘rtlik» xarakterini oydinlashtiradi. Ikkala roman analogik talqini nutqiy manera tafovutini hosil qiladi. «Jaziramadagi odamlar»da tasvir biroz yumshoq, yumoristik talqinga moyil, «Temir yo‘l»da esa ifoda keskinligi ustuvor xususiyat kasb etadi. Har ikki asar ham ijtimoiy munosabatlarning muayyan bosqichidagi holatini inkor qiladi. Ichki qoniqmaslik hissi ziddiyat va murakkablikni markazlashtiradi. Tavsiflararo ifoda uslubida ichki uyg‘unlikni shakllantirish tamoyili tajassum topadi. «Bunda u uch narsaga – xayoldagi inson-ideali, o‘z ichki dunyosi va ijtimoiy guruh haqidagi o‘z tasavvuriga tayanadi. Qarshisidagi odamni shu uch unsur bilan muqoyasa qilish orqali tasavvur hosil qiladi. Ko‘pincha tasavvur hosil bo‘lishida ilk taassurot (ideal bilan muqoyasaning hosilasi sifatida yuzaga kelgan simpatiya yoxud antipatiya) asos vazifasini o‘taydi»¹. Muallif inson haqidagi dastlabki tasavvurni tasdiqlash yoki rad etish uchun uni obekt darajasiga ko‘taradi. Tasvir obekti bilan taassurot ko‘lami orasidagi bog‘lam adib uslubi individualligini belgilaydi. L.Bo‘rixon ikkala romanida ham benihoya ko‘p personajlarga (Fayzulla aka, Ulash agronom, Xosiyat xola, Safarmurod chavondoz, Abdulla bodqovoq, O‘roq, Ashur, Samad, Turg‘un, Po‘lat, Dilshodbek, Alibek, Shojalol, Ikromiddin) tarif berarkan, birinchi galda obraz ijtimoiy qiyofasidagi kemptikliklarga ishora qiladi. Gap shundaki, har bir qahramon to‘liq estetik yuk tashuvchisi bo‘lmasa-da, inson xarakterining ba’zi qirralarini aloqalantiradi. Shu nuqtai nazardan, qamoqdan chiqqan Ashur tabiatiga nazar tashlaylik. Muallif qahramon shaxsiyatining har bir qirrasini mantiqiy urg‘ulash vositasida xarakter taqozosini hosil qiladi. «Temir yo‘l»da Dilshodbek esa to‘laqonli tadrijni ifodalaydigan yetakchi qahramonni dalolatlaydi. Agar dastlabki talqinda xarakter yoyiq holda tasvirlansa, keyingi personajda mantiqiy jamuljamlik ustuvorlashadi. Ijodiy mayl va uni ifodalashga

¹ Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. –T.: «Sharq». –B.163.

intilish tafovuti adib talqinlarida yangilanayotgan uslub dinamikasini ta'minlaydi. Joriy taminot tasvir me'yorlarini o'zgartirish barobarida voqelikni idroklash tizimiga ham ta'sir o'tkazadi. Aynan, munosabatli nutq erkinlashuvi shaklni sharhlaydi.

«Ma'lumki, san'atkor to'g'ridan-to'g'ri hayotdan nusxa ko'chirmaydi, balki unga haqiqatan o'xshash qilib, yangi bir dunyo yaratadi, kashf etadi. Boshqacha aytganda, hayotiy haqiqatdan badiiy haqiqat yaratadi; hayotiy fakt va hodisalarni o'zining ruhiy laboratoriyasida «qaynatishi», ishlashi, sintezlashtirishi, ya'ni tasavvuri, xayoli, orzusi, tajribasi, qalbi, tabiati, dunyoqarashi bilan boyitgan va muayyan g'oyaga xizmat qiluvchi xarakterli va zaruriy detallarni, fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan (obrazli) badiiy hayotni yaratishi zarur; yaratganda ham bu hayot kitobxon ko'z o'ngida jonli va real, ishonchli va go'zal, ta'sirchan va yaxlit bo'lib gavdalanishi shart»¹, - yozadi munaqqid H.Umurov. Darhaqiqat, hayotiy qamrov hamda badiiy to'qima bir-biriga nisbatan daxlsiz rivojlanadigan tushunchalar, ularning o'zaro mutanosibligi va raqobati uslub tizimini barqarorlashtiradi. Aynan, sistem yaxlitlik hayotiy tajriba hamda ijodkor fantaziyasi sintezining bir-biriga tutashuvi samarasi o'laroq, adabiy mahoratni birinchi planga chiqaradi. Shu ma'noda, badiiy chambarchaslik qonuniyligi ifoda tig'izligi hamda tasvir ruhiyatini xususiylashtiradi:

Amiraning ko'z oldida kaltabaqay, semiz va tepakal, qirq yoshlar tevaragidagi nusxa lop etib jonlandi. Chindan ham juvon uni Halimaxonning do'konida uchratgan edi. G'ani qadimiy bir tilla bilaguzukni sotish ilinjida yurgan ekan. Tilla buyumni ko'rib, hamma ayollar singari Amiraning ham ko'ngli sust ketdi. Garchand G'ani bilaguzukni ancha arzon narxlab turgan bo'lsa-da, biroq Amiraning uni sotib olishga baribir puli yo'q edi. Shuning uchun bilaguzukni obdon tomosha qilgach «hozircha kerakmas» degan mujmal javob bilan egasiga tutqazdi².

¹ Umurov H. Badiiy ijod asoslari. -T.: «O'zbekiston», 2001. 13-bet.

² Luqmon Bo'rixon. Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi // Yoshlik, 2014 yil, 2-son. -B. 24.

Luqmon Bo'rixonning «Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi» qissasi sarguzasht xarakteriga ega. Uning g'oyaviy asosini inson ijtimoiy-ruhiy-ma'naviy mohiyati tashkil etadi. Bu uchlik estetik daxldorlik milliy an'analarga munosabati yordamida ijodiy yaxlitlik kasb etadi. Yozuvchi xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi an'analarda uzviy aloqadorligi mahsuli. Guvohi bo'lganimizday, qahramon shaxsini badiiy detallashtirishda muallif fojeaviy vaziyat yaratish vositasida mohiyatni to'la anglash jarayoniga yuzlanadi. Ayolning makr-hiylasi fojeaga tutashadi. Hayotiy zarbalar personaj turmush tarzini kuzatish va baholashga zamin hozirlaydi. Asar qahramoni Amira muhit farzandi. U o'zligini yo'qotmagan holatda bilaguzukni olishni maqsad qilib qo'yadi. Biroq endilikda u dag'al reallik bilan to'qnashadi. Voqea mantig'i ayol o'limi bilan nihoyasiga etadi.

«Xizr ko'rgan yigit» qissasida qahramon turli vaziyat hamda jug'rofiy sharoitlarda o'zligini namoyon etadi. Xarakter o'zgaruvchanligi uning botini va ijtimoiy munosabat ta'sirida yuzaga keladi. Qahramon ruhiy olamiga xos turfa xil qirralar bir-biriga o'tib turadi. Aslida, obraz tub mohiyati inson mukammalligini to'la dalillay olmaydi. Chunki unda yaxshi xislatlar yomon xulq-atvorga qorishib ketadi. Zotan, inson ruhiy olamida shakllangan amaliy boshqaruv tizimi uning tashqi faoliyatini yuzaga chiqaradi. Xatti-harakat, urf-odat, ong va tuyg'u miqyosi ko'lamini aynan ijtimoiy faoliyat nazorat qiladi. Shuning uchun ham inson faqat ruhiy holatdagina asl mohiyatiga yaqinlashadi. Demak, adabiy talqin rang-barang, tasvir esa ko'p qatlamli, murakkab hamda serqirra bo'lishi tabiiy mohiyat kasb etadi.

Qizig'i shundaki, odamzot hayotiy pozitsiyasi doimo cheklangan. Chunki umuminsoniy qadriyat va xislatlar nisbiy xarakterga ega bo'lib, har bir xarakter beqarorligi ijtimoiylikka tutashadi. Shuning uchun ham badiiy xarakter yaratish mezoni xususida so'z ketganda, qahramon ichki dunyosi tadrijini belgilash va ruhiyat mintaqalari rang-barangligini mantiqan asoslashga katta ahamiyat qaratiladi. Demak, badiiy xarakter turfa ruhiy holat-kechinmalar nisbatiga

asoslanadi. Obraz harakat yo'nalishini esa tasavvur va taassurotning umumkayfiyatga evrilishi belgilaydi. Binobarin, har bir adabiy talqin jarayonida ratsional rivoya texnikasi tahlil ketma-ketligini ta'minlaydi. Inson va borliq, inson va jamiyat, keng ma'noda, mavjudlik jumbog'i idroki turfa falsafiy-estetik umumlashmalarni yuzaga chiqaradi. Harakat doimiy rivojlanishda bo'lganligi bois badiiy ong ham shunday xususiyatga ega. Bu hol xarakter iroda yo'nalishi hamda tugalligini ifoda markaziga ko'tarishni taqozo etadi. Inson o'z fe'l-atvoriga ko'ra murakkab individ. Chunki uning tafakkur tarzi erkin va mustaqil qutb bo'lib, individuallikni ta'minlaydi. Ayni paytda, ong mustaqilligi shartli mohiyatga ham ega. Adabiy qahramon o'y-xayoli jamiyat taqozosiga ko'ra yuzaga keladi. Demak, har bir xarakter hissiy idroki birqadar tor hamda xususiy ma'noda olinganida ham obektiv mohiyatga daxldorlik kasb etadi.

Ijodda realistik tamoyil ustuvorligi shundaki, yozuvchi hodisani poetik idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki unda ijodiy yondoshuv hamda unda estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Joriy munosabat tasvir shiddatining uyg'unligini taminlash barobarida xarakter to'laqlonligini ham dalolatlaydi. Voqelik keskinligi yoxud ifoda to'qnashuvi badiiy maqsadni aniqlashtiradigan omil, unda muhokama tabiatini anglash tadqiq sahnaga chiqadi. Tuyg'u va ongda kechadigan jarayon aslida, bir-birini inkor qiluvchi qutblar, teran falsafagina bu ikki nuqtani jipslashtiradi. Zero, adabiy tafakkur tizimi yaxlitlik asosiga quriladi, poetik unsurlarning ziddiyati-yu uyg'unligi uning yetakchi badiiy xususiyatiga evriladi. Binobarin, janr taqozosi va adabiy qonuniyatlar joriyligi taraqqiy topayotgan badiiy shakl xususiyatlarini jamlaydi.

Adabiy talqin nafaqat davr, ijtimoiy shart-sharoit, hayotda mavjud voqea-hodisa, xarakter va holatlar, yozuvchi tasviriga ko'chgan situatsiya va konfliktlarga bog'liq, balki birinchi navbatda bu xarakter, holat-kayfiyat, konfliktlarni badiiy obrazlarda gavdalantiruvchi, hayotning original badiiy

kartinasini yaratuvchi ijodkor inson – san’atkorga bog‘liq¹, - yozadi adabiyotshunos O‘.Nosirov. Binobarin, asosiy tushunchada san’atkor shaxsiyati butunligiga daxldor xususiyatlar jamlanadi. Yaxlit tizim sifatida voqelik shakli va mazmunini bir-biriga ulaydigan badiiy tushunchada daraja ko‘rsatkichi qabarib ko‘rinadi. Aynan, tasvir va ifodani muayyan estetik markazga yig‘ish adabiy mahoratga chambarchas bog‘liqdir. Aslida, hayotiy material ko‘p qirrali va mavhum, ijodiy tanlov pozitivligini esa tahlil aniqligi belgilaydi. Mantiq hamda munosabat zichligi badiiy meyor saqlanishi kafolati, unda real voqelik poetik tadqiqi ustuvorlashadi.

Poetik ifodani mustaqillashtirishga yo‘naltirilgan Luqmon Bo‘rixon qissalarda introspektsiya usuli (nuqtai nazar notekisligi, rivoya mavqei o‘zgaruvchanligi)dan samarali foydalanadi. Mavjud adabiy talqinlarda intizom yaxlitligi ko‘zga tashlansa-da, tafsilotlararo keskin tafovut badiiy mohiyat ko‘pqatlamligini belgilaydi. Muallif muhokamasida epik «men»i tez-tez qahramon «men»i bilan to‘qnashadi. Ularni bir-biriga nisbatan daxlsiz rivojlantira olgan adib mo‘jaz yaxlitlik yaratadi. Nuqtai nazarlararo ziddiyat voqelik shiddatini oshirishdan qahramon xarakterini baholashga ko‘chadi. Tanlov usuli badiiy chambarchaslikaro estetik quvvatni kuchaytiradi hamda realistik tasvirni rasmiylashtiradi. .

Davr hodisalari, zamon o‘zgarishlari, eng avvalo, inson qalbida aks-sado beradi. Ijtimoiy-madaniy, siyosiy-mafkuraviy kayfiyat oqimi qalbgga yo‘naladi, uning zarblariga ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy asar ko‘ngil o‘ta shaxsiy, shu barobarda o‘ta ijtimoiy mahsuli bo‘lganligi bois, zamonning o‘zgarayotgani, tafakkur yangilanayotgani unga ham o‘z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday o‘zgarishlar, o‘sishlar tasvir oynasi. Unda g‘oyalar taraqqiyotlarini, inson ongi va ma’naviyati o‘sish tarixlarini, ijobiy yangiliklar kasb etish jarayonlarini kuzatish mumkin. Shunga ko‘ra, bir davrda yaratilgan qahramon boshqa bir davrda yaratilgan qahramondan farq qiladi, bir ijodkor yaratgan xarakter o‘zga ijodkor ro‘yobga chiqargan xarakterdan farqlanadi. Biroq bu xarakter va qahramonlar

¹ Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. -T.: «Fan». 1981. –B. 75.

tabiatida o'ziga xoslik ustuvorki, joriy bog'lamni adib uslubiga bog'lash maqsadga muvofiq.

Luqmon Bo'rixon «Xizr ko'rgan yigit» qissasida adabiy talqinni hosil qilishda o'ziga xos usuldan foydalanadi. Muallif psixologik tahlil markazida turadigan Anvar qiyofasini chizar ekan, estetik tanlovni badiiy umumlashmaga aylantiradi. Ijodiy boshqaruv hamda ifoda tig'izligi tasvirni poetik markazga yig'ish imkonini beradi. Inson tabiatiga daxldor xususiyat hamisha butunlikka intilish tamoyili bilan sharhlanadi. Unda aks etadigan musbat-manfiy chiziqlar uyg'unligi shaxs erkinligi kafolati. Adib xarakter uzviyligi taminotini tadrij bosqichlari mantig'iga singdiradi: oila – muhit – jamiyat – axloq. Inson mohiyatiga muntazam tasir o'tkazib turadigan mohiyatda ziddiyatlar uyg'unligi tajassum topadi.

Asarda hayotiy detalni kinoyaviy-parodik usulda baholashga moyillik ko'zga tashlanadi. Ifoda usuli poetik jonlantirilgan tasvir miqyosi roviy mavqeiga ulkan estetik zalvor yuklaydi. Talqin qo'llanmasi muntazam kitobxon e'tiborini tortib, voqelik **sabab-oqibatini** hissiy idroklashga zamin hozirlaydi. Uslubda hikoyachi muallif «men»i ustuvorligi ikki tomonlama tahlil: ham jamiyat taqozosi, ham xarakter to'laqlonligini ochishga xizmat qiladi. Ayni paytda, munosabat zichligi hamda keskinligi tabdil tiniqligini barqarorlashtiruvchi yetakchi adabiy omilga aylanadi. Harakat-holatni kuzatishdagi aniqlik Luqmon Bo'rixon ifoda yo'sini jonliligini belgilaydi. Usul o'ziga xosligi ikkinchi qirrasi voqeaband tasvirda epik yig'iqlik salmog'ini oshirishga intilish bilan izohlanadi.

Har bir asardagi yozuvchi falsafiy-estetik konsepsiyasini aniqlash va yaxlit tarzda umumlashtirish uning muayyan asari yoxud yaxlit ijodini tushunish va tushuntirish imkonini beradi. Yoki aksincha, u yoki bu asarda qo'yilgan masalalarning falsafiy-estetik asoslari aniqlanmas ekan, alohida ijodkorning ayni asarda ilgari surgan fikr-qarashlari mohiyati ham to'g'ri tushuntirilmaydi. Alohida asarlari mohiyatini bilmasdan turib esa uning yaxlit ijodiga xos kontseptsuallikni oydinlashtirib bo'lmaydi. Bundan shu narsa ravshanlashadiki, bugungi kunda

yaratilayotgan har bitta asar o'ziga xos va mos bo'lgan falsafiy-estetik yondoshuvni talab etadi. Shu asosdagina o'zaro yaqin turuvchi janr va ijodkorlar uslubiy yo'nalishiga xos yaqinlik hamda aksincha, mutlaqo farqlanuvchi jihatlarni aniqlash, muayyan tizim asosida tadqiq etish mumkin bo'ladi»¹, - yozadi f.f.n., dots. I.Yoqubov.

Iqtibosda badiiy konsepsiya mohiyati birinchidan, adabiy tafakkur konsepsiyasi borliqni anglash tizimi yaxlitligidan iborat, ikkinchidan, falsafiy-estetik tayanch nutqlararo intizom atama tabiatini tavsiflaydi, uchinchidan, har bir matn kontseptual markazni shakllantiradi, to'rtinchidan, ifoda uslubi badiiy konsepsiya o'ziga xosligini tayin etadi. Unda tasvir ruhiyatini shakllantirishga yo'naltirilgan umumiy, xususiy, real va ideal jihatlar uyushadi. To'g'rirog'i, qadriyaviy mezonlar aniqlovchi, ijtimoiy-ma'rifiy qamrov to'ldiruvchi komponentlar birikuvini hosil qiladi. Ong va tuyg'uda kechadigan voqelik janriy ifodasi tasavvurlararo cheklangan nisbiy haqiqatni ilgari suradi. Subektiv mohiyat xos ifoda yo'sinidan oziqlanadigan adabiy talqinda obektiv borliq daxlsizligi saqlanadi.

Ijodkor badiiy konsepsiyasi hamisha xolislikka intiladi. Zotan, har bir asarda bir-biriga nisbiy raqobatda turadigan dunyoqarash jilvalanadi. To'g'rirog'i, mantiqan uyushadigan badiiy kontseptuallikda ham davr ruhiyati, ham muallif shaxsiyati, ham qahramon individualligi qorishib ketadi. Unda ijtimoiylashgan mohiyatning falsafiy-ma'rifiy-axloqiy asoslari tipiklashadi. Shartlangan tizimda faoliyat, dunyoqarash, ong va tuyg'u tahlil hamda talqin adabiy ilg'am evrilishlarini hosil qiladi. Aslida, ham davr ruhiyati, ham shaxs ma'naviyatini izdan chiqaradigan etakchi omillar ijtimoiy munosabatlar zichligiga payvandlanadi. Shaxs iroda yo'nalishi mustahkamligi insonni muhofaza qiladigan yetakchi mezon hisoblanadi. Abadiy tabdilda odamzod mayl va istaklari kuchliligi uni tanazzulga yetaklovchi omil sifatida gavdalanadi. Luqmon Bo'rixon qahramonlararo, ayni paytda, shaxs botinida qabarib ko'rinadigan ichki

¹ Yoqubov I. Badiiy – estetik so'z sehri. –T.: «TVDP», 2011. –B 8.

muxolifatni tahlil markaziga ko'taradi. Unda adabiy loyiha materiya-pozitsiya-g'oya tig'izligi kuzatiladi. Aynan muammo moddiylashuvi adabiy mohiyatga yo'llanma vazifasini bajaradi. Tuyg'u bilvosita va bevosita ongda reallashuvi ifoda taraqqiyotini ta'minlaydi. Mohiyatan mavhumlikdan aniqlikka ko'chadigan obraz talqini badiiy mohiyatga tayanadi. Janr ma'no tagmatni ittifoqi muallif asosiy mushohadalarida aloqadorlik kasb etishi barobarida adabiy mantiq erkinlashuviga sharoit tug'diradi. Binobarin, ijodkor iroda yo'nalishi hamda g'oyaviy tanlov nisbati adabiy talqin mag'zini tayin etadi.

Munaqqid U.Jo'raqulov fikricha: «Psixanalitik talqindagi komizm insonning bolalik davri xotiralari bilan bog'liq. Bola kattalar bilan o'zini qiyoslaganida o'zida ularga nisbatan ustunlik sezsa, kula boshlaydi. Masalan, bir odam ko'chada yiqilib tushsa, bola kuladi. Bunday kulgiga sabab, «u yiqildi – men esa yo'q» degan avtomatik xulosadan lazzatlanishdir. Komizmning assotsiativ xarakteri ham aynan shu bilan izohlanadi. Agar katta kishi katta kishining ustidan kula boshlasa, unda bolaga xos harakat va holatlarni ko'rgan bo'ladi. Kulgi obektining bolalarcha harakati uni bolalikka qaytaradi. Endi o'zining bola emasligini anglagan kishi, shu haqiqatni anglamagan kishi holatidan zavqlanadi va kuladi»¹. Binobarin, inson ruhiyatining muayyan mohiyatini sharhlaydigan komizm tabiatida ham piching, ham kesatiq, ham kinoya, ham zaxarxanda kulgi uyushadi. Joriy badiiy vositada hayot haqiqati yorqinligini ifodalash imkoniyati kengroq. Negaki, xarakter kulgusi g'ayritabiiy mantiqqa sig'maydigan bir-biriga nisbatan uzoqlashgan mohiyatga nisbatan qo'llanadi. Har bir badiiy tasvir vositasi va hissiy idrok qamrovi g'oyaviy-badiiy konsepsiyani tugallashtirishga yo'naltiriladi. Aks ettirish va qayta yaratish taomillarini birlashtiradigan realistik uslubning tanqidiy imkoniyatlari ifodani toraytirib yuboradi. To'g'rirog'i, **kinoya**, **kesatiq**, **piching** singari obrazli vositalar tahlilga cheklov qo'yadi. Xarakter va vaziyat komizmi esa munosabatlar keskinligini yumshatadi. E'tiborli jihat shunadki, modal munosabat hosil qiladigan tasvir vositalari ichki omil va tashqi shart-sharoitning nomuvofiqligi bilan

¹ Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. –T.: «T». 2006. –B. 40.

o'lchanadi. Sifat belgilarining o'z barqarorligini yo'qotishi aslida yosh xususiyatlarga bog'liq emas. Faqat va faqat inson hatti-harakatlarining axloq mezonlaridan chetga chiqishi badiiy xarakter hamda real vaziyat komizmini hosil qiladi:

Eshik qiya ochilib ikki davongirday yigit – Nabi va Rustam ichkariga sirg'alib kirdi. Ular Abray lochinining ishongan odamlari. «Osh yeyilsa, o'rtada sarson ilik»- deb bemalol shular haqida aytish mumkin. O'yin bilan andarmon qimorbozlar yigitlarga deyarli e'tibor berishmadi. Rustam hujra chekkasi bo'ylab tizzasida yurgan ko'yi Abray lochinga yaqinlashib, uning qulog'iga shivirladi.

- G'ani bilan qo'ng'iroqlashdik. Molnii ikki soat ichida yetkazadi¹.

Asardagi eng fojeyaviy nuqta voqelik dramatizmini yaratadi. Muallif giyohvandlik savdosi bilan bog'liq muammoni bevosita muhit an'alaridan keltirib chiqaradi. Jamiyatdagi beqarorlik ulkan jinoyatlarga yo'l ochadi. Vaziyat tragizmida yigitni ham ayblab bo'lmaydi. Jamiyat a'zolari singari u ham ko'rganlariga ishonadi. Aslida gap faqat fojea to'g'risida borganida vaziyatni baholash murakkablik tug'dirmasdi. Asosiy mohiyat turg'unlashgan tartib-qoidalar hukmronligida namoyon bo'ladi. Qahramon hatti-harakati, ruhiyati yetarlicha mantiqan dalolatlangan. Inson mayli muayyan bosqichlarda «izdan chiqishi», me'yoriy holatdan nome'yoriy o'lchamga o'tishi e'tirof etilgan hodisa. Odatda, eng ayanchli jinoyatlar joriy holat qo'llanmasini taqozolaydi. Muallif nozik kuzatishlarni jonli mushohadaga aylantirish vositasida manzarani yaxlitlashtiradi. Tugal tasavvurga asoslanadigan ifodada mohiyat voqelikka qarshilantiradi. Aynan tasvir ruhiyatini tovlantirish yordamida adib talqinni qabariq vaziyatga yo'naltiradi. Tipik individual xususiyatlarni uyg'unlashtirish orqali adib badiiy xarakter to'laqonliligini tayin etadi. Piching, kesatiq va kinoya mazmunini tushunish kitobxonda murakkablik tug'dirmaydi. Negaki, oshkora-oydin niyat muqarrarligi badiiy tasvir vositasi tugalligini ta'minlaydi. Shu o'rinda takidlash joiz: ifoda xos boshqaruvi jamiyat illatlari puchmoqlariga kirib boradi. Manzarada

¹ Luqmon Bo'rixon. Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi // Yoshlik, 2014 yil, 2-son. –B. 27.

fojeiy ohang quyuqligi badiiy idroklanadi. Aynan tasvir qabariqligi axborot zichligini uyushtirish, hissiy-shuuriy munosabatni oydinlashtirish hamda estetik tasir o'tkazish jipsligini taqozolaydi. Adib realist yozuvchi sifatida odamzod qiziqish-manfaatlari sharoit bilan nechog'liq aloqadorligiga urg'u berarkan, muhitga moslashgan insonning to'liq o'zgarishi oson kechmasligini amalda dalolatlaydi.

Har bir janr o'zi ham uslub yaratuvchi omil hisoblanadi. Uslub esa san'atning estetik qimmat ko'rsatkichlaridandir. Biroq har qanday asar, hatto har qanday yo'nalish ham o'z uslubini yaratish darajasiga ko'tarilavermaydi. Bunda janr aniqligi va yaxlitligi uslubni keltirib chiqaruvchi faktorlardan biri rolini o'ynamaydi. Aksincha, janr qirralari va chegaralarining aniq emasligi, bo'shligi, janrga xos eklektizm uslubsizlikka olib boradi. Ayniqsa adabiyotshunoslik bilan tilshunoslik chegarasida ish ko'ruvchi ayrim tadqiqotchilar u yoki bu janrga xos uslub haqida gapirishga o'rganib qolganlar. Bunda odatda san'atning formasiga aloqador bo'lgan badiiy ifoda vositalarigina uslub deb qaraladi¹. Odatda, janr yaxlitligini taminlovchi unsur – badiiy uslub, ayni paytda, poetik shakl barqarorligiga ham rahna soladi. To'g'rirog'i, asosiy adabiy tizim qirralari janrda namoyon bo'ladi. Murakkablik va betakrorlik istilohning xususiy mohiyatini tasdiqlasa, janriy-uslubiy yaxlitlikning botiniy aloqasi atama umumiy sajiyasini anglatadi. Qorishiq holda namoyon bo'ladigan uslubning janrga muvofiqlashuvi yoxud badiiy shaklning uslubni hosil qilishi yo'naltiruvchi poetik mezonlarni barqarorlashtiradi.

Luqmon Bo'rixonning «Xizr ko'rgan yigit» qissasida voqelik ichki mohiyati jonli-jozib kuzatishlarga tayanadi. Uni birlashtirib turadigan voqelik va axloqiy o'lcham o'rtasidagi munosabat bilvosita jamiyat joriy qiyofasi haqida to'laqonli tasavvur beradi. Badiiy mazmun qismi sifatida ifoda va umumlashma uyushgan badiiy yaxlitlikni tavsiflaydi. Aynan, hissiy va mazmuniy ibtido aniqlik hamda mavhumlikni bir-biriga yo'naltiradi. Ijtimoiy qadriyat tanlovi bir vaqtning o'zida

¹ Umarov E., Pal I. Janr estetikasi. –T.: «Adabiyot va san'at nashriyoti», 1985. 43-bet.

ong va voqelikaro tasvir ruhiyatini shakllantiradi. Asarda axloqiy talqin yigit xalovatini yo‘qotgan vaziyat (betiyiq bir istak) hamda uning amaliy ifodasiga bog‘liq. Muallif qahramon munosabatlarini muqoyasa qilar ekan, ishtiyoq maylga aylanishi har bir insonda turfa xil kechishini tasdiqlaydi. Goh o‘z istagiga tobe, goh o‘z-o‘ziga nisbatan talabchan personaj, bir tomondan, mohiyatni idrok eta olmay karaxt bo‘lsa, ikkinchi tomondan, oqibat naqadar dahshatli tus olishidan cho‘chiydi. “Bir tomchi yosh” qissasida esa adib bosh qahramonning qiyofasini quyidagicha tasvirlaydi. Baxtiyor bolaligidan rassomlikka mehr qo‘ygan, ammo amakisining qistovi bilan bu orzusi amalga oshmay qolgan. U bolaligidan ko‘nglida ozgina bo‘lsa ham umid bilan biror ishga qo‘l urar baxtga qarshi ko‘p o‘tmay bu ish o‘z nihoyasiga yetardi. Baxtiyorning atrofidagi tanish bilishlar, qarindoshlar uning ijod kishisi ekanligini tushunishmasdi. Bosh qahramon ruhiy olamini uning monologlarida kuzatish mumkin. “ Nega?! Nima uchun?! Bor yo‘g‘i alla qanday korxona bo‘yoqchilikka olgani uchunmi?! Nahotki shu darajada maydalashib ketdi?! Nahotki, shu qadar ojiz va notavon odamga aylandi? Chizish-bo‘yash yumushini eplaydigan kadr kerak ekan, ana, ishga olishdi, shunga nima? Manglayida daholik yulduzi porlab turgani uchun unga talpinishgani yo‘q, shunchaki, sinov muddati bilan xizmatga olishdi, xolos. Tinkangni quritib ishlatishadi, minnatu iddaolar, betiyiq amru farmonlar bilan xo‘rlashadi, so‘ng xuddi laycha oldiga suyak tashlagandek, qo‘lingga o‘sha moyanangni tutqazishadi. Sudralib uyga qaytasan! Sudralib yana ishga borasan! Bir umr shunday! Bir umr sudralib o‘tasan! Shuning uchun behad quvonib yuribsanmi?! Orzularing shumi sening!”

Baxtiyor butun qissa davomida o‘zini shu kabi qiynoqli so‘roqlarga tutadi. O‘z savollariga javob izlaydi, ammo uning qalbida jaranglayotgan ovozni hech kim tushunmas va eshitmas edi. Uning qalbidagi kelajakda mashhur rassom bo‘lish orzusi va hammadan bekitib qo‘ygan “Bir tomchi yosh” kartinasi unga ertangi kun uchun umid, olg‘a qadam tashlashga kuch bag‘ishlardi. U oddiygina ko‘lmakdagi

oy va yulduzlarnig aksidan ham zavq olar, shodlanar nihoyasiz quvonchga berilar, lekin Baxtiyorning atrofida gilar esa uni savdoyiga chiqarib qo'yishardi.

Ijodiy tabdil hamda uning taqdimoti ruhiyat tahlilini teranlashtiruvchi e'tirof etilgan hodisa. Aynan u uslub darajasida san'atkor alohidaligining materiya g'oyaviy-estetik ittifoqiga birikuvini taminlaydi. Shu o'rinda, axborot zalvori hamda uning lisoniy uyushmaga tutashuvi badiiy yaxlitlikni hosil qiladi. Zero, tasvir ruhiyatiga munosabat va unsurlararo ijodiy yurishlar uslubda bir butunlikni namoyish etadi. Shox bilan payvandlangan zohiriy mojarolar yigit hayotini tayin etadi. Adib odamzod fitratida mujassam qirralar namoyon bo'lish tarzini rang-barang miqyoslardan suvratlaydi, tahlillaydi hamda baholaydi. Ayni paytda, obrazda kengayadigan ifodada qonuniyat aks etadi.

1.2. Faol estetik munosabat ijtimoiy-ruhiy asos sifatida

Bizning yo‘naltiruvchi deb atalmish ongimiz odatda miyamiz yerto‘lalarida yotgan xazinadan juda cheklangan tarzda va qat’iy tanlov asosida foydalanadi, biz adabiyotga, shuningdek, boshqa har qanday san’atga nisbatan ijodiy iqtidor yoxud iste’dod deb atovchi narsa esa ayrim odamlarning omborga kira olish bobidagi odatdan tashqari qobiliyatidir. Ular omborda yotgan tajribamizning tarqoq parchalarini tashqariga olib chiqadilar, ularni alohida qobiliyat bilan guruhlashtira oladilar, shuningdek, bu parchalar ombordan olib chiqilgandan so‘ng, ularni bir butun qilib yaxlit narsaga aylantiradilar¹. Darhaqiqat, adabiy talqin ong hamda tuyg‘u munosabatlarini o‘zaro muvofiqlashtirar ekan, «juda cheklangan tarzda va qat’iy tanlov asosida» tasavvurga ishlov beradi. Mavhum va tarqoq hodisotni badiiy yaxlitlikka aylantirish ijodiy individuallik tushunchasi bilan bog‘lam hosil qiladi. O‘z navbatida, ijodiy alohidalik uslubiy manera mag‘izini tayin etadigan estetik markaz ekanligini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Aynan, materiyani alohidalash, guruhlashtirish va turkumlashtirish poetik tadqiq tabiatini sharhlaydi. Aslida, ong tuyg‘uni namoyon etadigan tushuncha hisoblanadi, unda anglanmagan mohiyat anglangan haqiqatga evriladi. Harqalay, axloq mezonlarini estetik tuyg‘uga aylantirish ijodkor fitratidan oziqlanadi. Nisbatan mustaqil bo‘lgan qahramon yozuvchi pozitsiyasidan o‘sib chiqadi hamda badiiy xarakter milliy-umuminsoniy xususiyatlarni o‘zida jamlaydi.

Aksariyat hollarda barcha odamlar bir xil tuyg‘ularni boshdan kechiradi, lekin juda kam kishilar o‘zlarining nima haqida o‘ylayotganini biladi va boshqalarning hissiyotlarini ham seza oladi. Xullas, ruhiy kuzatuvchanlik – matematika yoki musiqaviy qobiliyat kabi alohida bir istedod mahsuli. Lekin bu hali yetarli emas. Bunday istedodga ega bo‘ladigan kamdan-kam odamlarning ikki-uch foizigina o‘z kuzatuvlarini badiiy shaklda ifodalay olish iqtidori bilan tug‘iladi². Binobarin, universal mohiyat hissiy idrokda xususiylashuvi badiiy

¹ Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: «Ma’naviyat». 2010. 82-bet.

² Xakli O. San’atda samimiyluk //. Jahon adabiyoti, 2004, №5. 140-bet.

aloqani hosil qiladi. Aynan, umumiylik va xoslik o'rtasidagi munosabat tig'izligi uni ifodalash ehtiyojini yaratadi. To'g'rirog'i, mushohada falsafiy, sintaktik-kompozitsion va grammatik-semantik quvvat hofizasi ijodiy alohidalikni yuzaga keltiradigan omillarga aylanadi. Badiiylik va hayotiylikaro munosabatda shakllanadigan ijtimoiy-ruhiy-marifiy miqyos saralanishi ijodkor fitrati shaxsiylashuvini taminlaydi. Shu manoda, har bir yozuvchi adabiy talqinida estetik talqin tamoyillari va tasvir vositalari ziddiyati jiddiy evrilishlarga uchraydi. Ijodiy jarayon adib va kitobxon ongi o'rtasida tug'iladigan dialogik munosabatlarga qurilishini hisobga olsak, badiiy uslub asosiy qirrasi vazifadoshlikka tutashuvi ayonlashadi:

Senga ko'p intildim, ammo umrim kemasini dunyoning sarkash suvlari uzoqlarga olib ketaverdi. Keyin esa kech bo'lgandi: biz o'zgarib ketgandik. Men takabburroq bo'lib o'sdim, biroq seni avvalgidek yaxshi ko'rardim. Yaxshi ko'rardimu... aytishning yo'lini topolmasdim. Bilsang, to o'lib ketguningcha ham sening qaysar yuragingga yo'l axtardim... Eh... - u birpas tin oldi¹.

Butun asar badiiy hujayralariga singib ketgan fojeaviy ohang parchada yuksak pog'onaga ko'tariladi. Hayot ayovsiz zarbalariga ko'nikishni istamagan yigit tutum talablariga bo'ysunishni istamaydi. Vaholanki, ishq tushunchasi uning hayot tarziga aylanib ulgurayozgan edi. Biroq tafsilotlar ayanchli yakun topadi. Oliy-axloqiy maqsadni ifodalaydigan tushuncha ijtimoiy munosabat keskin zug'umiga uchraydi. An'anaviy mavzu mustaqil qayta ishlangan yangicha talqini, bir qarashda, erish tuyuladi. Fan-texnika shiddati hamda qadriyaviy mezonlar tezkorligi aynan inson e'tiqodi parchalanishiga olib keladi. Bunday sharoitda mustahkam axloqiy mezon ustuvorlashuvi imkoniyatdan tashqari hodisa. Biroq qissa badiiy voqeligi mantiqan asoslangan ijtimoiy-maishiy bo'yoqdorlikni hosil qiladi. Borliqni idrok etish yangicha shamoyili bevosita hamda bilvosita odamzod mohiyatiga tutashadi. Aniqrog'i, sabab va oqibatga aloqalantirilgan ziddiyat zalvori aynan jamiyat ma'naviy-axloqiy mezonlaridan o'sib chiqadi.

¹ Luqmon Bo'rixon. Xizr ko'rgan yigit // Yoshlik, 2009. 3-son, -B. 28.

Epik kenglik va falsafiy mushohadani omuxtalashtira olish adibning hayotiy tafsilotlardan foydalanish mahoratidagi o'ziga xos jihat sifatida bo'rtib ko'rinadi. Qissada aqliy-ma'rifiy sarhadlarni epik ko'lamdorlik boshqarsa, piching, kesatq va kinoya singari vositalarni psixoanalitik bosim yagona estetik nuqtaga yig'adi. Shubhasiz, Luqmon Bo'rixon tom ma'noda an'anaviy ijodkor. Chunki u xalq fitrati va e'tiqodiga alohida mehr bilan yondashadi. Garchand yozuvchi izlanishlarida kuchli zaharxanda va piching o'rin almashinuvi bo'rtib ko'rinsa-da, shakliy mundarija o'ziga xosligi, badiiy yaxlitlikka putur etkazmaydi. Zotan, uslubiy manera poetik o'zgachaligini yozuvchi badiiy niyati va unga bo'ysundirilgan tafsilot hajmi belgilab beradi. Jumladan, qahramon xarakterida aks etadigan soddalik, ulug'vorlik xalq dahosi qadar keng. Tasvirda uchraydigan siqqlik ifodasi esa muallif nazariy-estetik qarashlari sifat darajasini belgilab beradi.

Ma'lumki, badiiy ijod asosida obrazdan konsepsiyaga o'tish realiyaning xoslanganlik darajasiga bog'liq. Unda quyidagi tushunchalar ziddiyati ikkilangan mohiyati poetik nuqtai nazardan jilvalanadi:

- *xayol va hayot;*
- *maqsad va natija;*
- *istak va imkon.*

Shaxs tafakkur ilg'ami teranlashgan sari insonda qoniqmaslik hissi ham kuchayadi. Jarayon tez orada miqyos va nisbat kasb etarkan, olam va odamga kinoyaviy yondashuv darajasi shakllanadi. Inson yoki millat dunyoga chiqib, o'zga rasm-rusumlarga yaqinlashayotganda, kinoyaviy tasvir adabiy ifodaning asosiy vositasiga aylanadi. Negaki, bunday vaqtda estetik tafakkur voz kechilayotgan milliy qadriyatlardan bir qadar zada, o'zlashtirilayotgan begona qadriyatlarga esa bir muncha yot bo'ladi. Inson va jamiyat sifat miqdoridan ikkinchi sifat ko'rsatkichiga intilganda murakkab jarayon yuzaga keladi. Shunda shaxs o'ziga

nisbatan murosasiz bo'lib, uning tabiatida tahlilga moyillik paydo bo'ladi. Zero, «kinoya metanutq o'yini, bayon kvadrati»¹dir.

Ma'lumki, inson ruhiy borlig'i, uning o'y-kechinmlari, orzu-armonlari, maqsad-intilishlarini tasvirlash hamisha badiiy adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Tadrijiy takomillashib, rivojlanib kelayotgan o'zbek romani qiyofasi hamda nufuzi kechagidan tubdan tafovutlanadi. Yangilanayotgan badiiy tafakkur miqyoslari yangicha talqinlarni idrok etishni taqozo etmoqda. Har bir davr badiiyat solnomasi mohiyatida millat orzulari aks ettiriladi. Muhitdan inson tiynatiga ko'chgan yetakchi tasvir unsurlari bugungi roman qiyofasini to'la idrok etishga zamin hozirlaydi. Negaki, inson xarakteri turfa va o'zgaruvchandir. O'zligini anglashga, tushunishga intilayotgan zamondosh inson sajiyasi bugungi roman mavzu-mundariyasi hisoblanadi. Inson tafakkuri insoniyat tafakkuriga ta'sir o'tkazadi. Yozuvchi jamiyat ichida, «qaynoq hayot qo'ynida» turib ruhiy olamimizni ifodalashga kirishar ekan, inson degan murakkab va ko'p qirrali shaxsning butun tashqi va ichki dunyosini to'la-to'kis idroklab berishga ba'zan ojizlik qiladi. Chunki har bir ko'ngil o'zining yashash maydoni chegarasiga ega. Muvozanat buzildimi, demak, ruhiyatda o'zining tajassumini topadi.

Azal-azaldan san'at inson mayli to'kisligini o'rganishga intiladi. Istak hamda imkon orasida kuzatiladigan tafovut uning hayotiy qamrovini belgilaydi. O'z navbatida, har bir adabiy shakl odamzod xarakteriga singdirilgan «mavjudlik jumbog'i»ni xoslanganlik darajasida hal etishga harakat qiladi. Aniqrog'i, janr ichki uyushmasi va estetik tanlov chegarasi shuni taqozolaydi. Shu ma'noda, adabiy tafakkur tizimi adabiy mushohada mantiqiy taraqqiyotini tugal va yaxlit, tuyg'u va ong tutashuvini to'liq va batafsil, tasvir va ifoda bir-biriga o'tib turishini ixcham va siqiq tarzda jilvalantirish quvvatiga ega. Binobarin, inson faol plastik mohiyatini holat va harakat uyg'unligida umumlashtirishga moyillik badiiy munosabat epik miqyoslari kengligini asoslaydi. «Qissa personajlarning xatti-harakatlarini va hatto ularni qurshab olgan manzaralarni tasvirlar ekan, buni faqat

¹ Naz?vat veshi svoimi imenami. –M., 1986. –S. 228.

bir maqsadda – kitobxonga ruhiy harakatni kuzatishga imkon berish maqsadida qiladi»¹. Unda janr ijodiy boshqaruvi qotishga moyillashgan taomillari, shakliy barqarorlik taminoti ehtiyoji hamda badiiy ittifoqda ijodiy a'zolarining vazifadoshligi qabarib ko'rinadi.

Aslida har bir janr hayotiy materialni qayta ijodiy shakllantirish jarayoniga o'ziga xos tarzda yondashadi. Shakllararo aloqa va ziddiyat hajmi aynan usulvositalar turfaligini tashkil etadi. Unda matn tizimi uzviy taraqqiyoti va badiiy mantiq maqsadi qorishib ketadi. Ayni paytda, shakliy raqobat badiiy vazifadoshlik imkoniyatini cheklaydi. Buyuk rus munaqqidi M.M.Baxtin janr xususiyatlari tafovutini uchga ajratadi: birinchidan, anglash tizimi rang-barangligiga bog'liq va unda inikos topadigan uch uslubiy o'lcham ifodasi, ikkinchidan, asarda adabiy obrazning vaqtinchalik miqyoslari tub o'zgarishlar hosilasi, uchinchidan, zamonaviylik va uning tugallanmagan mohiyatiga maksimal yaqinlashadigan adabiy obraz yangi mintaqasini tashkil etish vositasi². Tarifda bir nechta nuqtalar mavjud: dastavval, oliy shakl – asar tili ong nutqiy sarhadlarini kengaytiradi, ikkinchidan, badiiy makon va zamon ijodkor fitratiga bo'ysundiriladi, uchinchidan, yangi adabiy voqelik ijtimoiy borliq bilan bo'ylashadi. Unda hayot haqqoniyligi va tasvir haqqoniyligi bir-biriga tutashadi. To'g'rirog'i, obektiv mohiyatlar mavhumligi va subektiv munosabatlar konkretligi orasida uchinchi voqelik – badiiy munosabatlar tizimi shakllanadi.

Modomiki, badiiy asarni badiiy kommunikatsiya vositasi deb tushunar ekanmiz, uning tabiatini boshqa kommunikativ vosita — gap bilan muqoyasada o'rganish qulay ko'rinadi. Zero, kommunikativ birlik sifatida ularning qator mushtarak jihatlarga ega ekanligi shubhasizdir. Avvalo shuki, so'zlovchi gap vositasida o'zgalar bilan muloqotga kirishganidek, yozuvchi ham asari vositasida o'quvchi bilan muloqotga kirishadi. Muloqotga kirishayotgan shaxs esa, malumki, har vaqt uchta asosiy maqsadni ko'zlaydi: a) reprezentativ —

¹ Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: «Ma'naviyat», 2010, 315-bet.

² Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskie stati. –M.: Xudojestvennaya literatura, 1986. –S. 399.

tinglovchi(o'quvchi)ga muayyan informatsiyani yetkazish; b) ekspressiv — informatsiyaga o'z munosabatini ifodalash; v) apellyativ — tinglovchi (o'quvchi)ga muayyan ta'sir o'tkazish. Aytish kerakki, kommunikativ birlikda shu uchala maqsad har vaqt hozir bo'lgani holda, har bir konkret birlikda ulardan biri yetakchilik qiladi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, gap bilan adabiy asar bajarayotgan birlamchi funktsiya ham, ularni yuzaga keltirayotgan motivlar ham o'xshash ekan. Demak, adabiy asar bilan gap tashkillanishi(struktura) jihatidan ham bir-biriga yaqin bo'lishi tabiiy. Shu o'rinda yana bir muhim nuqtaga diqqat qilish zarur: adabiy asarda ijodiy jarayon(va ayni shu jarayondagi ijodkor shaxsi) akslanganidek, gapda ham nutqiy situatsiya (va shu situatsiyadagi so'zlovchi shaxsi) muhrlanadi. Ya'ni ijodiy jarayon badiiy asarda, nutqiy situatsiyaning bir parchasi gapda predmetlashadi. Qarashlarimizda ayni shu nuqta ayrica ahamiyat kasb etadiki, unga urg'u berishimiz bejiz emas.

Adabiyotshunos M.Baxtin "nutqiy janrlar" haqida fikr yuritarkan, "gap" tushunchasiga eng oddiy jumladan tortib butun boshli adabiy asarlargacha kiritadi va ularni nutq jaryonidagi bir *zanjir* deb hisoblaydi¹. Shunday ekan, nutq jarayonida aytilgan gap mazmuniga so'zlovchi bunga qadar aytgan gaplar (kengroq qaralsa, so'zlovchining bu gap aytilgunga qadar shakllangan shaxsi) ham, muloqot ishtirokchilari bo'lmish o'zgalar tomonidan aytilgan gaplar ham ta'sir qiladi. Shunga qaramay, konkret gapda so'zlovchining ayni lahzalarda ongiyu qalbida kechgan o'y-hislari *modeligina* mujassamdir, sababki, boshqa ta'sir omillarining bari unda faqatgina bilvosita — so'zlovchi ongiyu qalbi orqaligina zuhur qiladi. Bundan ayon bo'ladiki, ayni shu gapni tushunish maydoni turlicha. Ya'ni, tinglovchilardan har birining gap mazmuniga ta'sir qilgan omillardan xabardorlik darajasi farqli: biri so'zlovchini yaqindan biladi, ikkinchisi — atigi "ko'z tanish"; biri suhbat kontekstidan to'la xabardor, boshqasi suhbatga keyinroq kelib qo'shilgan va h. Holbuki, so'zlovchi tomonidan aytilgan gap konkret mazmunga ega: bu o'sha gapni tashkil qilgan til birliklari (tovushlar vositasida moddiylashgan

¹ Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorchestva.-M.,1979.-S.254-256;

shakli) bilan soʻzlovchining ayni paytdagi ruhiy holati (bu soʻzlovchining yuz-koʻz ifodalari, jestlari, soʻzlash ritmi, ovoz tonalligi, intonatsiya va sh.k.lar vositasida tasavvur qilinadi) birligida namoyon boʻladi. Demak, konkret gapni butun(nutq jarayoni)ning qismi sifatida ham, alohida butunlik sifatida ham tushunishimiz mumkin ekan. Faqat shunisi borki, bu ikki holda tushunish natijasi (yaʼni, anglangan mazmun) farqli boʻladi. Zero, agar gapni alohida butunlik sifatida tushunmoqchi boʻlsak, biz uning moddiy tomoni (tovushlar majmuidan iborat soʻzlar tizimi) va bizga soʻzlovchining ayni paytdagi ruhiy holatidan darak beruvchi belgilar(ritm, tonallik, ohang, imo-ishora, marom va b.)gagina tayanamiz. Tabiiyki, agar ayni shu gapni butunning qismi sifatida, kontekstlar doirasida (soʻzlovchi shaxsi, suhbat davomida aytilgan boshqa gaplar va h.) tushunsak, mazmun sezilarli oʻzgaradi. Negaki, birinchi holda biz suhbat jarayonida aytilgan **gap mazmunini**, ikkinchi holda shu **gapga soʻzlovchi yuklagan mazmunni** tushungan boʻlamiz. Takidlash joizki, birinchi holda anglangan mazmunda subektivlik momenti mavjud: modelga tayangan holda oʻzga ongda shakllantirilgan mazmunda tinglovchining ulushi borligi tayin, albatta. Shunday boʻlsa-da, **birinchi holda gapni, ikkinchi holda soʻzlovchini** tushunish maqsadi yetakchiligini tan olmoq zarur.

Mushohadalar, tabiiyki, qissa janriga ham toʻla tegishlidir. Zero, konkret asarni muallifning butun ijodi va davr adabiyoti kontekstida ham, alohida olgan holda ham tushunish mumkin. Xuddi gapga oʻxshash, konkret adabiy asarda ham ijodiy jarayon — sanʼatkorning ijod onlaridagi oʻy-hislari, unga ayni lahzalarda ayon boʻlgan olamu odam mohiyatining modeligina akslanadi. Asarni atigi model deyishimizga asos shuki, uning turli oʻquvchilar ongida akslanishi turlichadir. Deylik, birgina model — "Oʻtgan kunlar"ning oʻzbek oʻquvchilari ongida millionlab variantlari mavjud. Sababki, model vositasida ijodkor bilan muloqotga kirishayotgan, unga tayanib tasavvurida badiiy voqelikni (demakki, badiiy asarni) qayta yaratayotgan oʻquvchilarning badiiy didiyu saviyasi, ijodiy imkoniyatlari turlichadir. Ayni paytda, bu millionlab variantlarni umumlashtiruvchi qator

nuqtalar ham borki, bu ularning bitta asos — "O'tgan kunlar" matnidan o'sib chiqqani bilan izohlanadi. Demak, o'qish ijodiy jarayon bo'lgani holda, tasavvurida badiiy voqelikni jonlantirayotgan o'quvchi tamomila erkin emas, bunda uning modelga tayanishi shart qilinadi. Ya'ni, ijod jarayonida voqelik san'atkor ongiyu qalbidan o'tkazilib modelga aylantirilgan bo'lsa, o'qish jarayonida o'sha *model vositasida ijodiy jarayon tiklanadi* — badiiy voqelik qaytadan yaratiladi. Ko'ramizki, ijodiy jarayon mahsuli bo'lmish model (masalan, boshqa turfa kitoblar singari bir buyum bo'lmish "O'tgan kunlar" nomli kitob) faqat ijodiy jarayon — badiiy muloqot chog'idagina badiiyat hodisasiga aylanadi. Baski, o'quvchi muloqot vositasi bo'lmish model(asar)ning ichki tashkillanishi (strukturasini)ni qanchalik yorqin tasavvur etsa, badiiy muloqot shunchalik samarali bo'ladi. Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni ko'zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro'yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo'lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik bo'lishi tabiiy. Demak, adabiy asar strukturasini gap qurilishi model(konstruktsiya)lariga tayangan holda tushuntirish mumkin bo'ladi.

Yozuvchi qissalariga xos xususiyatlardan biri tahlil teranligi bilan izohlanadi. Muallif badiiy talqin zamirida inson to'g'risida xayolot – hayotda mujassam og'riq nuqtalar, bezovta tuyg'ularni qarama-karshiliklar silsilasida aks ettiradi. Odamzod tabiatini ro'yirost tasvirlash adib estetik tamoyillarini belgilaydi. Shu bois, uning achchiq haqiqatlari kitobxonga malol kelmaydi, san'atkor adabiy mahorati – jamiyat va hayot haqqoniyligi nuqtalarini aniq ilg'ay olishida, qahramon ma'naviy olamini to'g'ri tabdil etishida, shaxs manfaat va qiziqishlarini yagona estetik maqsadga yo'naltirishida, insoniyat ma'suliyati, ma'naviy hamda ma'rifiy sajiyani shakllantirish iqtidorida to'liq namoyon bo'ladi.

Hamma odamlarga xos bo'lgan yurak dardlarini izhor etishga moyillik yozuvchida alohida quvvat kasb etadi. Shunday tuyuladi-ki, bu adib hayotiga zarur

bir ilovadir va u yozuvchi hayotiga quvvat etadi. Hodisalarning qandaydir lahzasini manguga muhrlab qo'yishga intilish beqiyos muvaffaqiyatlarga olib kelishi mumkin: yangi qadriyatlar barpo etiladi. Albatta, bu yangi qadriyatlar yangi falsafiy konsepsiyalar, qimmatli ilmiy kashfiyotlar, yetakchi g'oya bo'lmog'i shart emas, balki biron she'rning istalgan misrasi, voqelikning istagan parchasini aks ettiruvchi nasrning istagan jumlasini ham o'shanday qadriyat o'rniga o'tishi mumkin. Albatta, xayolot yordamida yaratilgan asarlarda bu narsa boyroq va yorqinroq ko'rinishi mumkin. Bunday asarlarda olam butunlay o'zgargan holda namoyon bo'ladi, bu dunyo butunlay boshqacha qonunlarga bo'ysunadi»¹. Vaholanki, unda uyg'unlik va ziddiyat bir-birini taqozolaydi. Aslida, har qanday yangilangan qadriyat inson hayoti asl mohiyatini o'zgartirmaydi. Faqat bu mohiyat va ifodasida tafovut kuzatiladi. Bu tafovut bani-bashariyatga xos bo'lgan ruhiy kechinmadan oziqlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qadriyaviy mezonlar ijtimoiy-falsafiy tafakkur salmog'iga bog'liq. To'g'rirog'i, muayyan qarashlarning murakkablashuvi axloqiy me'yorlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyot inson mohiyatini o'rganar ekan, u bevosita falsafa va ilohiyot bilan birlashib ketadi. Adabiyotning dardi, iztirobi, og'rig'i falsafiy og'riq, ilohiy og'riq. Chunki insonning mohiyatini uning ko'ngli va ruhiyatini moddiy taraqqiyotlar to'la qondira olmaydi. Mana, XXI asrda insoniyat aql bovar qilmas taraqqiyotga erishdi, uning qulayliklaridan, taraqqiyotning barcha mahsullaridan foydalanayapmiz, kosmosga uchayapmiz, olis yulduzlarning titi-pitisini chiqarib, tekshirib yotibmiz, nigohlarimiz teleskoplar orqali galaktikalarning uzoq nuqtalariga borib yetayapti, ammo inson muammosi Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Mashrab davridagidan nari siljigani yo'q. Bu muammo hali ham shunday turibdi. Xususan, siz keltirgan Rumiylar hazratlari insonshunoslik masalasida nima degan bo'lsa, bugun ham o'sha hikmat, o'sha tahlillar dolzarbligicha turibdi. Demak, inson mohiyatini moddiy jihat, moddiy ravnaq to'la ochib berolmaydi. Inson hali-hanuz jumboqligicha qolmoqda, haligacha u o'zi izlaganini topolgani

¹ Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: «Ma'naviyat». 2010. 248-249-betlar.

yo‘q. Izlagani chetda emas, uning o‘z ichida bo‘lsa, ne tong?! Ehtimol, odamzod bu dunyoga o‘z ichidagini o‘zgalardan izlab, o‘zi bilan o‘zi kurashib, o‘zi tuzab, o‘zi vayron qilib, o‘zi tanazzulga borib, o‘zi tiklab umr kechirishga mahkum etilgandir?! Ehtimol, tiriklik mohiyati mana shu qutblar orasidagi izlanishda va o‘zini topishdadir. Ehtimol, inson qachonlardir o‘z ichidagini topib, o‘zini-o‘zi mahkumlikdan xolos qilar. Lekin hozircha xolos qilgani yo‘q. Inson haligacha o‘ziga-o‘zi jumboq. Bu jumboqning ildizini ilohiyotdan, ruhiyatdan, koinotdan, ana shu olamni birlashtiradigan o‘zidan izlash kerak, chamamda. Ana shu narsalarning hammasi, Rumiylar hazratlari aytganday, insonning ichidadir. Inson ichi koinot kabi keng, ilohiyat kabi quvvatli, ruhiyat kabi sirlidir. Barcha savolga javob uning ichida, uning o‘zida, uning mohiyatida. “Har ikki olam” tahlili – bu insonning o‘zini tahlil qilish madaniyatidir.

Joriy kunda adabiyot eng katta xususiyati uning rang-barangligidir. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti mavzu jihatidan ham, janriy o‘zgarishlar nuqtai nazaridan ham, uslub tomonidan ham g‘oyat xilma-xil ko‘rinishga ega bo‘lib borayotir. Aynan shu xilma-xillik va unga doimo ega bo‘lish imkoniyati odamzod asl, bebaho boyligi bo‘lsa, ajab emas. Demak, avvalo, shu boylilik qadriga etmoq, uni asrab-avaylamoq kerak bo‘ladi. Chunki ijod uchun erkinlik degani ko‘chat uchun mo‘tadil tuproq, suv va havodek gap. Modomiki, shunday ekan, ijod erkinligi uchun hamma, butun jamiyat, uning ziyoli qatlami va, ayniqsa, ijod ahli birdek masuliyat his qiladi. Boshqa tomondan, rang-baranglik degani avlod degan tushunchani inkor etadi. Avlod bo‘lish uchun muhit bir xilligi shunga yarasha dunyoqarashdagi yakranglik ham kerak bo‘ladi. Hozir iste’molda hamma “izm”lar mavjud. Kim an’anada, kim mumtozda, kim modern va yana kim “supermodern”, ya’ni, hamma yo‘nalishlarning kesishuvida ijod qilayapti. Shunday bir vaziyatda, badiiy tizimda o‘z ijodkorlik maqomini saqlab qolish haqiqiy iste’dodga nasib qiladi. Luqmon Bo‘rixon ana shunday sharafiga erishgan yozuvchi sanaladi.

Davr hodisalari, zamon o‘zgarishlari inson qalbida aks-sado beradi. Ijtimoiy-madaniy, siyosiy-adabiy kayfiyatlar oqimi qalbgaga yo‘naladi, uning zarblariga ta’sir

ko'rsatadi. Badiiy asar qalbning o'ta shaxsiy, shu barobarda, o'ta ijtimoiy mahsuli bo'lganligi bois, zamonning o'zgarayotgani, tafakkurning yangilanayotgani unga ham o'z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday o'zgarishlarning, o'sishlarning tasvir oynasi. Unda g'oyalarning taraqqiyotlarini, inson ongi va ma'naviyatining o'sish tarixlarini, ijobiy yangiliklar kasb etish jarayonlarini kuzatish mumkin. Shunga ko'ra bir davrda yaratilgan qahramon boshqa bir davrda yaratilgan qahramondan farq qiladi, bir ijodkor yaratgan xarakter o'zga ijodkor ro'yobga chiqargan xarakterdan farqlanadi. Biroq bu xarakter va qahramonlar tabiatida mushtarak jihatlar ham mavjudki, bu, eng avvalo, zamondoshlarimiz ruhiy olamini badiiy tadqiq etish va tipik sharoitda umumlashtirishda yaqqol ko'rinmoqda.

Adabiyot biz ko'nikkan tushunchadagina iborat emas, albatta, uning missiyasi xiyla teran, shunchalarki, insonning asliy va, eng asosiy, ichkin ehtiyojlariga ajabtovur tarzda javob bera oladigandek tuyuladi. Odatda, o'lmas bitiklarning javobi g'oyat umumiy tarzda bo'ladi. Fikr odami esa shu umumiylikni o'zining va o'zgalarning hayoti misolida konkretlashtirgisi, unga induvidual libos kiydirgisi, yaqindan tushungisi, his qilgisi keladi. Shu yerda adabiyot o'zining obrazlar olami va ramziy tabiati bilan unga yordamga bel bog'laydi. Jaloliddin Rumiy "Ichindagi ichindadir" asarida u dunyoni, ruhlar olamini bu dunyo orqaligina, bu dunyodan olingan misollar vositasidagina tushuntirish mumkin, deydi. Bu borada Karl Gustav Yungda ham ajoyib fikr bor ekan. Uning "Xotiralar, tushlar, mushohadalar" nomli asarida o'limdan keyingi hayotga ishora bor, bular tush, ong osti hayotimiz, degan fikr ilgari suriladi. Aslida, adabiyot o'z tabiatiga ko'ra, xuddi shunday jihatlarni ham qamrab oladi va qamrab olmog'i kerak emasmi? Faqat uch o'lchovli olamga, bu dunyoning aqidalarigagina suyanib, uning talablarigagina mo'ljallab bitilgan adabiyot inson ko'ngli yarimigagina malham qo'yishi mumkin, ha, shaksiz, u mavjud haqiqatning bir pallasigina bo'la oladi. Haqiqiy adabiyotda har ikki olamga ishora bo'lmog'i va, eng muhimi, bunday adabiyot har ikki olamdan manaviy turtki olib yaratilmog'i kerak. Chunki bu adabiyot ong ustiyu ong ostidagi borliq "men"i reallashadi.

II-BOB. ADIB QISSALARIDA MUHIT VA INSON ADABIY TALQINI

2.1. Matnda shaxs va jamiyat munosabatlari ijodiy tabdili

Adabiy talqin hayotiy materiya, badiiy g'oya va estetik munosabat kesishgan chorrahada muayyan salmoq kasb etadi. To'g'rirog'i, mohiyatni harakat va holat taraqqiyoti ta'minlaydi. Ma'no maydonida tushunchani qayta qurish, tasvir yaxlitligiga erishish, ifoda ruhiyatini shakllantirish, doimiy o'zgaruvchan munosabatni nazorat qilish hamda obraz mushohadasini markazlashtirish uning asosini tayin etadi. Muvozanat, aloqa va raqobatni tizimlashtirish poetik muhokama turfa qirralari, sintaktik tanlov hamda mantiqiy ta'kid estetik ilg'amni hosil qiladi. Tahlil qatida materiya predmeti va g'oyaviy-badiiy ifoda o'zaro birikuvini hisobga olsak, masala mohiyati ayonlashadi. Hayot va jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Ayonki, tafakkur ruhiyat tadqiqi bo'lgan adabiyot asnosida yuksaladi. Badiiy ijoddagi muayyan yo'nalish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Uning ham o'z asosi, tarixi bo'ladi. Istiqlol davri hikoyachiligidagi yangilanish va tamoyillarning vujudga kelishi xuddi shunday omillarga bog'liq. Ya'ni, unutilgan qadriyatlarning tiklanishi, ma'naviyatning asosi bo'lgan dinga e'tiborning kuchayishi, davlat boshqaruvida demokratik yo'nalishning paydo bo'lishi, bozor iqtisodining tarkib topishi singarilar. Bu o'zgarishlar odamlarni boshqacha harakat qilishga undadi. Aniqki, bunday say-harakatning barchasi ong, tafakkur orqali boshqariladi. Zero, shunday ekan, tafakkurdagi evrilish adabiyotda o'z ifodasini topishi muqarrar va tabiiydir. Xo'sh, bu o'zgarishlar Luqmon Bo'rixon qissalarida qanday yangilik va tamoyillarni yuzaga keltirdi? Bular sirasiga quyidagi omillarni kiritishimiz maqsadga muvofiqdir:

- janrda g'oyaviy-tematik ko'lam kengaydi;
- ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy, oilaviy masalaga e'tibor kuchaydi;
- gumanistik mazmun va ruhiy tahlil teranlashdi;
- milliy o'ziga xoslik keng quloqch yoydi;

– insonning hayotdagi o‘rni, yashashdan maqsadi kabi masalalar mohiyati falsafiy yo‘nalishda ochib berildi.

Badiiy adabiyotda milliylik deganda, aksariyat adabiyotshunoslar buni urf-odatda, milliy libosda, faoliyatda, say-harakatda, nutqda ko‘rishadi va shu holatlarda o‘z mujassamini topadi, deb bilishadi. To‘g‘ri, bu holatlar milliylikni belgilaydigan omillar hisoblanadi. Lekin joriy vosita va omillar o‘zida milliylikni to‘liq ifodlaydi, deb bo‘lmaydi. Chunki bular milliylikning zohiriy ko‘rinishlaridir. Ma‘lumki, zohiriylik bu shakl. Shakl esa hech qachon masala mohiyatini belgilamaydi. U belgilashga xizmat qiladigan vositadir. Milliylik birinchi navbatda, ruhiyatda o‘z mujassamini topadi. Milliylikni belgilaydigan boshqa xususiyatlarning barchasi unga bog‘liq, undan kelib chiqadi. Ruhiyat esa insonning tabiatini va o‘zligini belgilaydigan ilohiy kuch, ma‘naviy oziqdir. Ruhiyati kuchli odam to‘g‘ri yo‘ldan toymaydi, e‘tiqodidan voz kechmaydi. Ko‘p manbalarda qayd qilingan, ta‘kidlangan millatga xos bo‘lgan xususiyatlar, ya‘ni, jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi; ota-ona, mahalla-ko‘y; umuman, jamoatga yuksak hurmat-e‘tiborning kuchliligi; ona tiliga muhabbat; kattaga hurmat va kichikka izzat; ayol zotiga ehtirom; sabr-bardosh va mehnatsevarlik; halollik, mehr-oqibat kabilardir. Bu xususiyatlarning barchasi milliy ruhiyatning mahsulidir. Chunki, mazkur fazilatlar insonning jismidan emas, tuyg‘usidan kelib chiqadi. Joriy kunda adib qahramoni mana shu xususiyatlar o‘zaro munosabati silsilasida qabarib ko‘zga tashlanadi.

Hozirgi davr adabiyotida yangicha shakllarni qo‘llash, shaklda turli tajribalar qilib ko‘rishga urinishlarni kuzatish mumkin. Bir qadar murakkab asarlar zahirida yotgan g‘oyalarni tezda ilg‘ash qiyin. Ularni to‘la tushunish maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Chunki serqatlam syujet yo‘nalishiga asoslangan bunday asarlarda voqelik o‘zigina ifodalanmay, yangicha uslublar yordamida uyg‘unlashgani holda o‘tmish va bugun, rivoya va real hayot tarzlari aks ettirilmoqda. Olam muammosi, uning voqea-hodisalari sababini his qilish, yoritishdan ko‘ra, inson olami sirli, uni anglash, inkishof qilish murakkabdir.

Chunki insonning o'zi, uning qalbi butun bir olamdir. Qolaversa, olamdagi (tabiat hodisalaridan boshqa) barcha jarayonlarning yuzaga kelishi, ro'y berishi, hayotda ezgulik tantanasi ham komil inson o'y-fikri, hayotiy falsafasi va uni amalga oshirishdagi say-harakatiga bog'liq. Bundan ko'rinadiki, hayotdagi har jabhaning maqsad sari yo'nalishi inson zakovati va uning mahsuli tufaylidir. Keyingi davr adabiyotida xuddi shu narsani ochib berishga bo'lgan e'tibor ancha kuchaydi.

Badiiy asar go'yo bir jonli organizmdir: organizm jonsiz yashay olmaganidek, «jon» ham tanasiz o'zini namoyon qilolmaydi. Jonli organizmning eng kichik hujayrasi ham unda aylanib turgan iliq qon tufayli yashagani kabi, badiiy asarning har bir katta va kichik qismi ham unga hayot baxsh etib turgan mazmun tufayli yashaydi va shu mazmunning nishonasi, tashqi ifodasi bo'lib xizmat etadi¹, - deya e'tirof etadi O'zR FA akademigi I.Sulton. Nazariy qarashda bir nechta jihat e'tiborni tortadi. Birinchidan, badiiy asar o'z ichki qonuniyatlari vositasida shakllanadigan poetik tizim, ikkinchidan, matn ittifoqi shakl, mazmun va uslub nisbiy daxlsizligini ta'minlaydigan estetik qadriyat, uchinchidan, ijodiy aloqalantirilgan munosabatlar jamuljami ifoda intizomida o'z mantig'i hamda maromiga erishadi. To'g'rirog'i, hayotiy qamrov darajasi tabiiyligi va ijodiy mustaqillik faolligi istiloh asl mohiyatini to'la asoslaydi.

Luqmon Bo'rixon badiiy muhokamasida ijtimoiy-falsafiy yaxlitlik muayyan tarixiy sharoit mantiqiyliги, inson qiziqish-manfaatlari tig'izligi, ma'naviy-axloqiy mezonlar joriyligi hamda jamiyat ehtiyojini markazga yig'adi. To'g'rirog'i, g'oyaviy-ruhiy mintaqa uyg'unligi qahramon faoliyatini boshqaradi. Unda hayot haqiqati zalvori, adabiy taomil qonuniyligi hamda ifoda ma'rifati tugal mohiyat kasb etadi. Aynan inson e'tiqodi-maslagi taraqqiyot bosqichlarini qadriyaviy-ma'naviy-madaniy hamkorlik negizida ochib berishga intilish yozuvchi pozitsiyasini tavsiflaydi. Shu ma'noda, muayyan axloqiy mezonlarni kuzatish hamda mavjud me'yorlar jamiyat a'zosi turmush tarzi, ruhiy olamiga uzviy ta'siri hajmini belgilash adib ijodiy izlanishlari tayanch markazini tashkil etadi. Aslida

¹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 1986. –B. 163.

shaxs tabiati muntazam shakllanib boradigan yaxlit majmuadan iborat. Shu bois, odamzod ziynati axloqiy mezonlarga rioya qilish bilan cheklanmaydi, balki, umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash va muhofaza qilish uning sifat ko'rsatkichini asoslaydi. San'atkor ko'tarib chiqayotgan, kashf etayotgan inson xarakteri ruhiy teranligi, ijtimoiy keskinligi va badiiy salmog'i vositasida real mohiyatga erishadi. Adib asosan, ijtimoiy munosabatlar jamuljamini tayin etadigan, ruhiy ehtiyojlarni boshqaradigan qudrat manbaini aniqlashga harakat qiladi.

Luqmon Bo'rixonning «Xizr ko'rgan yigit» qissasida muallif muayyan iroda yo'nalishi tadrijini xarakter ijtimoiy mohiyati ta'minlashiga mantiqiy urg'u beradi. Asarda qahramon ichki mohiyati mudomi izchil harakatda, faoliyatda namoyon bo'ladi. Qiziqish va manfaat aslida obraz to'ldiruvchisi, unda izchillik va muntazamlilik inson xulqi yaxlitligini dalolatlaydi. Ayni damda, voqealar tizimi va syujet tarkibiy qismlari intizomini xarakter markazlashtirishini e'tiborga olsak, iroda yo'nalishi namoyon bo'lish tarzi qahramon shaxsini shakllantiradigan vosita ekanligi ayonlashadi. Aslida obraz mazmuni va mundariyasi manfaat-ehtiyoj kesishgan chorrahada ijtimoiy mavqega erishadi. Binobarin, inson tabiati umumruhiyat xususiy ifodasi, unda ichki muhit va tashqi vaziyat bir-biriga o'tib turadi. Ijtimoiy mohiyat personaj hayot tarzi, yashash maydonini belgilab beradi. To'g'rirog'i, jamiyat talabi va taqozosi inson xarakteri shakllanishi muayyan bosqichlari kafolati, orzu va istak, imkon va sharoit, tasvir va talqin, ideal va g'oya yaxlitligi estetik tugallikni tasdiqlaydi.

So'zning obrazga aylanishi – estetik jihatdan o'ta faollik kasb etishi uning hissiy boyitilgan, aniqlik va yaxlitlik kasb etgan, estetik jihatdan baholangan reallikka aylanishidan iborat. Chunki bunda so'z o'zining material estetika obektligidagi ma'nosini boyitgan ifodada ko'pplanlilik kasb etadi. Natijada, u nominativ, axborot berish doirasidan chiqib, tasviriy va ifodaviy munosabatlar,

ya'ni ekspressiv ma'nolar doirasida harakat qiladi¹, - ta'kidlaydi prof. B.Sarimsoqov. Darhaqiqat, tushuncha mantiqiy taraqqiyoti moddiy estetika va ijodiy estetika tabiatini bir-biridan tafovutlash lozimligini ko'rsatadi. Unda materiya nominatsiyasi tasavvurda boyitilgan, ijodiy mantiqda taraqqiy topgan hamda ruhiy tahlilda teranlashtirilgan adabiy talqinga aylanadi. Binobarin, estetik shaklda voqelik hissiy idrok predmetini sharhlaydi. Aynan adabiy janr barqarorligi matn ijodiy yaxlitligini hosil qiladi.

To'xtovsiz yangilanib boradigan adabiy mohiyatda ijodiy mayl o'ziga xosligini hayotiy tajriba, aqliy manfaat va idrok tanholigi tayin etadi. Binobarin, hissiy ong silsilasidan iborat badiiy g'oya alohidaligi tahlil predmetiga individual yondashuvni taqozolaydi. Uning xos daraja ko'rsatkichini janr, matn va adabiy tizim boskichlariga taqsimlash mumkin. Tasnif shartliligini e'tibordan soqit qilmagan holda joriy istiloh murakkab ijodiy tashkilotga intilishini e'tirof etish joiz. Aslida badiiy nazorat boshqaruvi muntazam evrilishlari poetik xotira shakllanish tarzi ko'pqatlamliligini hosil qiladi. Ma'no tug'ilishi va mohiyat tashkil topishi bir-biriga tig'iz bog'liq, ayni paytda, bir-birini inkor etadigan tushunchalar. Agar dastlabki bosqichda tasvir mavjudligi tabiati pirovard ustuvorlikka erishsa, keyingi qismda ifoda nisbiy tugallikka intiladi .

Zamonaviy adabiy jarayon va adabiyot tarixida har bir janrning o'z mohiyati, o'zni mavjud. Biroq realistik hikoya, qissa, roman hamda roman-epopeyada badiiy shakl rivojlanib boradigan bosqichga aylanadi. Bu nazariy aqida!.. Faqat janriy vazifadoshlik ko'lamdorligi hamda mohiyati, uni falsafiy, psixologik va badiiy miqyoslarda hal qilish vazifasi o'zgarmay qoladi¹, - yozadi rus olimi A.V.Chicherin. Darhaqiqat, adabiy janr tinimsiz o'z shamoyilini yangilab boradi. Shunga qaramay, badiiy shakl tadrijida ijodkor fitratiga xos umumiy ijod qonuniyatlarini kuzatish mumkin.

¹ Sarimsoqov B.İ. Badiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004. -B. 34.

¹ Chicherin A.V. Vozniknovenie romana-epopei. – M.: Sovetskiy pisatel, 1975. – S. 5.

Xususan, Luqmon Bo'rixon qalamiga mansub «Xizr ko'rgan yigit» va «Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi» qissalarida ifodani shakllantirish tamoyillari bir-biriga hamohang. Ijodiy usullar vazifadoshligi nuqtai nazaridan, ikkala asarda ruhoniyl yondashuv mushtarakligi kuzatiladi. Ijtimoiy-tarixiy va madaniy-ma'rifiy ta'sirlar uyg'unligi badiiy shakl murakkabligini amaliy dalolatlaydi. Negaki, janr «o'z taraqqiyoti mobaynida voqelik butun qatlamlarini, jumladan, turfa miqyos va mavzularni qamrash hamda uni badiiy tadqiqot predmeti teranligiga aylantirishga harakat qiladi»¹.

To'g'ri, tasvir ruhiyati va ifoda davomiyligi yaxlitligi adabiy janr umumiy manzarasini tayinlaydi. Biroq badiiy shakl ijodiy imkoniyatlari cheklanganligi hamda barqarorligi adib janr taqozosini o'zgartirishga intilishi jarayoni bilan to'qnashadi. Tugallik va adabiy intizom har bir badiiy shakl uchun xos xususiyat. Shu ma'noda, janr tabiati xilma-xil poetik uyushmalarni jipslashtiradi. Aniqrog'i, shakl, mazmun va uslub o'rtasidagi badiiy munosabatni qayta tiklash uning asosiy estetik vazifasi sanaladi. Chuqur tahliliy muhokama matn butunligini ta'min etadi. Aynan materiyani «badiiy tadqiqot teranligiga yo'naltirish» tizimi moddiy va ma'naviy qadriyat mezonlari xilma-xilligidan o'sib chiqadi. Unda hayot haqiqati badiiy talqin vositasida to'ldiriladi, boyitiladi va tartibga solinadi. Agar real voqelikni xaos va mavhum obekt tarzida qabul qilsak, adabiy mohiyat uning badiiy yaxlitlikka evrilgan ifodasi hisoblanadi.

Badiiy matn inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg'unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasidagi aloqa badiiy yaxlitlik kafolati, unda subekt va obekt ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g'oya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyati o'z ifodasini topadi. Aslida «har bir san'at asari dunyoning yaxlitligini tasdiqlovchi manifest»² hisoblanadi. Adabiy hamjihatlik real voqelik hamda ijodiy g'oya o'rtasida shakllanadigan munosabat tizimi tajribasini markazlashtiradi. Adabiyot falsafasi

¹ Fridlender G.M. Poetika russkogo realizma. – Leningrad: Nauka, 1971. – S. 63.

² Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: Ma'naviyat, 2010. –B. 127.

hissiy idrok vositasida o‘zaro bog‘liqni asoslashdan iborat. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, mohiyat hamisha mavhumlik qadar harakatlanadi. Tasvirdan ifodaga, ifodadan g‘oyaga muttasil o‘tib turish aloqalantirilgan mushohadani tahlilga yuzlantiradi. Binobarin, tahlil va talqin insoniyat fikrlash madaniyati ikki bosqichi, imkoniyat hamda mantiq mushtarakligi poetik butunlikni tayin etadi. Shu manoda, «Xizrni ko‘rgan yigit» matni mustaqil, aniqlovchi va to‘ldiruvchi ijodiy a‘zolar badiiy intizomidan iborat. Zotan, asarda tasvir ruhiyati intensivligi ifoda mustaqilligi tarqoqligiga olib keladi. Uni texnik barqarorlashgan, ijtimoiy-ruhiy-falsafiy mohiyat tugalligidan tashkil topgan voqea-hodisot izchil ifodasi sifatida baholash mumkin. Muallif adabiy tafakkurda tafsilot, taassurot va muhokamaga keng o‘rin ajratadi. Goh oshkor, goh yashirin tarzda namoyon badiiy maqsad muntazam turtki hamda natija aloqadorligini tiklash vazifasini bajaradi. Ichki uyg‘unlik, nisbiy shartlilik va hayotiy-maishiy talqin asar mundarijasini belgilab beradi. Ijtimoiy-madaniy voqelik bilan matnni tutashtirgan poetik ong taqlid, tahlil, tasvir hamda ifodani muayyan estetik markazga yig‘adi.

«Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi» qissasi Luqmon Bo‘rixon adabiy guldastasida o‘ziga xos halqani tashkil etadi. Psixologik maqsad hamda ijtimoiy mohiyat uyg‘unligini tavsiflaydigan asarda muhim ma’naviy-axloqiy mezonlar kun tartibiga qo‘yilgan. Latif – mavjud jamiyat aqidalari vositasida shakllangan va muhit voyaga etkazgan ziyoli timsolini ifodalaydi. Aslida u ishning ko‘zini biladigan, ziyrak va bilimdon kishilardan biri. Qahramon tabiati murakkab sajiyasi ijtimoiy vaziyat suvratidan oziqlanadi. Bosh obraz, vijdonli va oqko‘ngil inson sifatida kitobxon onggida turg‘unlashadi. Kutilmagan vaziyat (G‘arg‘araga jo‘naydigan poezd ketib qolganligi) uning hayotini izdan chiqaradi. Asta-sekin keskinlashib boradigan voqelik shiddatini matn maromi tutib turadi. Shunga qaramasdan, vaziyat jiddiyligi o‘quvchini hayajonga soladi. Jamiyat turfa bo‘g‘inlarida kuzatilayotgan nohaq rasm-rusumlar uning tabini xira qiladi. Uyga qaytgandan so‘ng sharmandali vaziyatga duch keladi. Yigit xarakterida mujassam beqarorlik tuyg‘usi unchalik xavf tug‘dirmaydi. Yoshlarga xos deya idrok etilgan

tiynat aslida manfaat va maslak zichligini tasdiqlaydi. Muallif qahramon shaxsiyati qirralarini detallashtirish vositasida tasvir to'laqlonliligiga erishadi. Tor manfaat va izzattalablik illatiga duchor bo'lgan yigit muhit talablariga moslashgan. Yengil hayot usulini maqbul bilgan inson uchun aynan bu holat tabiiy hodisa, albatta! Shunga qaramasdan, Latif fojeasi ijtimoiy munosabatlar qatidan sizib chiqadi. Adib vaziyatning odamzod daxlsizligiga rahna solishini jurnalist timsolida badiiy umumlashtirishga intiladi. Yozuvchi mahorati qahramon xarakterida shakllanayozgan illat-nuqsonlar tub ildizlarini aniq falsafiy-ijtimoiy-ruhiy yaxlitlikda belgilashi orqali namoyon bo'ladi.

Matn lavhasi bosh qahramonda bir-biriga zid ruhiy kechinmalarni uyg'otadi. Bir tomondan, xotirada qayta tiklangan oila muammosi idrokda jonlantirishiga zamin hozirlasa, ikkinchi tomondan, faoliyat bobidagi «qo'nimsizligi» diliga g'ashlik soladi. Buning sababi oddiy: inson tutumi, qilmishlari uning hayotiy pozitsiyasi, ruhiy dunyosidan kelib chiqadi. Ayni paytda, manfiy va musbat xislatlar beqarorligi odamzod mohiyatini yanada murakkablashtirib yuboradi. Shuni yaxshi bilgan qahramon shaxsiyatida ruhiy parchalanish sodir bo'ladi. Muallif yigit qiyofasiga batafsil chizgi berish vositasida manzara keskinligini oshiradi. Yigit ko'nglida hosil bo'lgan hadik izzat-nafs, kibr-havo hamda manfaat tuyg'usi toptalishi qo'rquvidan oziqlanadi. Zotan, bunga qisman uni shu darajaga yetkazgan, ishontirgan muhit ham bevosita aybdor. Adib mahorati kichik, ahamiyatsiz tuyulgan qirralardan ham «eng oliy darajada ma'nodorlik» (A.Genis) kashf etadi. Falsafiy-ijtimoiy-ruhiy umumlashma teranligi talqinni lahzada idrok etishga imkon bermaydi, tahlil mantig'ini tadqiq sahniga ko'taradi.

Luqmon Bo'rixon ijodida «aks ettirilayotgan qatlamlarning chuqurligi unda harakat qilayotgan odamlarning jonliligi, xarakter tabiati va shaxsiy miqyoslariga bog'liq bo'ladi. Yozuvchi voqealarning harakatchanligiga qancha ko'p e'tibor bersa, qahramonlarining jonli va hayotiy chiqishi uchun shuncha ko'p jon kuydiradi. U har bir qahramonni, hatto eng kichik personajgacha ishonarli

gavdalantirishga jiddiy e'tibor beradi»¹. Inson, tabiat hamda jamiyat munosabatlarining g'oyat ziddiyatlarga evrilgan mohiyatini tanlash, keskin muhokamaga qo'yish va yuksak axloqiy-ma'rifiy dasturda hal qilish adib ijodiy izlanishlari mag'zini tayin etadi. Tasvirni xarakterli belgilari, jonli chiziqlari vositasida ifodalash, so'z quvvati va tasavvur salmog'ini uyg'unlashtirish, muammo zalvori g'oyaviy nutqlarni boyitib borishi shundan dalolat beradi. Aslida realistik talqin va adabiy tafakkur bir-birini taqozolaydigan estetik tamoyillar jamuljamidan iborat. To'g'rirog'i, ifoda miqyosi madaniyati ijodkor fitrati hamda davr ruhiyatidan o'sib chiqadi. Mohiyatan muallif jiddiy yangilangan, o'zgargan ijodiy maqsadi tahlil qonuniyligi falsafiy teranligini to'laqonli ravishda jipslashtirishga zamin hozirlaydi.:

Mingbuloqdan keladigan bir ariq suv dam oftobda kumushday yarqirab, dam ariq tagidagi giyohlar rangida ajib tovlanib, daryoday hayqirib oqmoqda edi. Haydar ariqqa yetmasdanoq kiyimlarini yechib, bedazorga otib yubordi-da, hurkak otday oldindan dir-dir titrab, o'zini suvga otdi. Muzday buloq suvi avzoyi badanidan o't chiqarib yuboribdi, u jonholatda suvda o'ynoqlab, o'zini u qirg'oqdan-bu qirg'oqqa otdi, lekin zum o'tmay tanasi suvga o'rganib, allaqanday tinchib qoldi. U tol shoxini ushlab, suvda chalqancha tushib yotdi-da, ko'zini yumdi. Nazarida, go'yo suv emas, kimningdir muloyim qo'li uning horg'in tanasini mehr bilan silayotganday, har bir hujayra, har bir asab tolasiga orom berib, sevib silayotganday tuyuldi¹.

«Xizr ko'rgan yigit» qissasidan olingan parchada muallif tabiat manzarasini tahlil markaziga ko'taradi. Lavha o'ziga xos mazmun kasb etib, unda qahramon ichki dunyosi, yashash maydoni va falsafiy aqidalari uyushadi. Anvar obrazi tadrijiga nazar tashlasak, uning hayot yo'li o'zgachiligi ko'zga tashlanadi. Yigit qalbi faxr va g'ururga to'la yoshda! Hali u hayotda turmush dolg'alariga duch kelmagan. Aslida qahramonda yuzaga kelgan evrilishlar tashqi voqelikka

¹ G'afurov I. Mangu latofat. -T.: Sharq, 2008. -B. 252.

¹ Luqmon Bo'rixon. Xizr ko'rgan yigit // Yoshlik, 2009. 3-son, -B. 31.

munosabat shaklida reallashadi. Tevarak-atrofdagi ro'y berayotgan hodisalar uni o'ylashga, fikrlashga majbur etadi. Endi u ilgari faxrlanib yurgan bo'z bola emasligini anglayozdi. Biroq bundan qo'rquvga tushishga o'rin yo'q! Muallif qabariq tasvir qorishig'ida inson idrokini band etgan ijtimoiy-ruhiy muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Xotiralar dinamikasida qayta tiklangan imkoniyat asar yo'nalishini tayinlaydi. Adib obraz dinamikasida yo'l qo'yilgan kamchilik-nuqsonlar hajmini mantiqiy jihatdan bosqichma-bosqich aniq tasvirda to'liq dalolatlashga intiladi.

“ Bir tomchi yosh” qissasidagi mana bu tasvir qahramonning atrofidagi odamlar unga qanchalar uzoq ularning qarashlari Baxtiyornikidan tubdan farq qilishini ko'rsatadi. “...Nogoh uning ko'zi hovuz tubidagi ko'lmakda balqib turgan yulduzlarga tushdi. Isqirt bir ko'lmakda balqib turgan yulduzlar! Tun! Qop-qora, motamsaro daraxtzor! Ko'rganlari Baxtiyorga sirli bir hikmatlar so'yildilar, fikratiga sirli bir ishoralar qilardi. Uning yuragida tanish, juda tanish to'lqin ko'tarildi. Lazzatli bir iztirob butun shuuriga silqib kirdi.” Tabiatning bunday manzarasi Baxtiyorga ko'lmakka xuddi bir xovuch yulduz tushganday manzarani ifodaladi va u bundan hayratda edi, ammo hamkasblari uchun bu oddiy bir hol edi. Bu holatdan Baxtiyor og'rinar, hamkasblarining unga qanchalar begona ekanini, oralaridagi masofa yaqin bo'lsa ham aslida uzoqlashib ketganini ich-ichidan his qilardi. Yozuvchi manashu holat tasviri orqali qahramon qalbidagi san'atga befarq bo'lgan odamlarga achinish hissini ifodalaydi.

So'z san'ati muntazam fikr, hodisa, g'oya va ruhiy kechinma xarakterini umumlashtirishga moyil. Aniqrog'i, muammo eng muhim qirrasini urg'ulash uning mohiyatini ta'riflaydi. Bu daxldorlik inson, millat va bashariyat manfaatlarini birlashtirsa, poetik kashfiyot hosil bo'ladi. Shakl, so'z va ma'no tuyg'usi evrilishi ijodkor dunyoqarashida xoslanadi. Total ifoda tanlovi kengligi hamda teranligi poetik maqomni rasman tasdiqlaydi. Shu ma'noda, hayotiy tushuncha qamrovi va ijodiy e'tiqod masuliyati yaxlitligi ijodkor ruhiy olami o'ziga xosligini ta'minlaydi. Tasavvur, kechinma, taassurot haqqoniyligi adib badiiy hujayralari to'qimasiga

singib ketadi va borliqni ijodiy o'zlashtirish tizimini muayyan qadriyatga aylantiradi.

Har qaysi san'atning tarixi inson qalbining tomonlaridan birini ifodalashga bo'lgan qator urinishlardir. Xuddi shu narsa uni boshqa san'atlardan ajratib turadi. Bu urinishlar shunday bir egri chiziqni tashkil qiladiki, san'at kamalakning yengil o'qi kabi shu chiziq bo'ylab zamon qariga o'z maqsadi sari intiladi. Intihosiz ufqdagi shu nuqta har qaysi san'atning yo'nalishini, mohiyatini va ma'nosini ko'rsatib turadi»¹, - yozadi buyuk ispan mutafakkiri Xose Ortega-i-Gasset. Darhaqiqat, «inson qalbi asosiy, bo'linmas tarzda namoyon bo'ladigan» mohiyatini ifodalash san'at asosiy yo'nalishini belgilaydi. Ijodkor aslida mavhum bo'lgan «umumiy muammo jihatlaridan birining ifodasi»ga anqlik bag'ishlaydi. «San'at muammosining hal qilib bo'lmaydigan xususiyati» esa uning sirli-jozib tabiatidan kelib chiqadi. Ta'rifda bir nechta jihat e'tiborni tortadi. Birinchidan, «inson qalbi tomonlaridan biri» ijodiy alohidalik va originallikni takidlaydi, ikkinchidan, «zamon qariga o'z maqsadi sari intilish» subekt va obekt tig'iz aloqadorligini tavsiflaydi, uchinchidan, «egri chiziq traektoriyasi» badiiy voqelikning hayot materialidan keskin tafovutlanishini anglatadi, to'rtinchidan, «san'at muammosi mavjudligi» adabiyot tizimida estetik g'oya ustuvorligini mantiqiy jihatdan asoslaydi, beshinchidan, «eng xufya, eng ardoqli qatlamga etib borishga urinish» usul- vositalar majmui rang-barangligini tasdiqlash barobarida ijodiy mayl murakkabligini nazariy jihatdan sharhlaydi. Demak, san'atni anglash va anglatish tarzi ong hamda iqtidorning o'zaro uyg'unlashuvini taqozo etadi.

Adabiy talqin hayotiy materiya, badiiy g'oya va estetik munosabat kesishgan chorrahada muayyan salmoq kasb etadi. To'g'rirog'i, mohiyatni harakat va holat taraqqiyoti ta'minlaydi. Ma'no maydonida tushunchani qayta qurish, tasvir yaxlitligiga erishish, ifoda ruhiyatini shakllantirish, doimiy o'zgaruvchan munosabatni nazorat qilish hamda obraz mushohadasini markazlashtirish uning asosini tayin etadi. Muvozanat, aloqa va raqobatni tizimlashtirish poetik

¹ Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: Ma'naviyat, 2010. –B. 307.

muhokama turfa qirralari, sintaktik tanlov hamda mantiqiy ta'kid estetik ilg'amni hosil qiladi. Tahlil qatida materiya predmeti va g'oyaviy-badiiy ifoda o'zaro birikuvini hisobga olsak, masala mohiyati ayonlashadi. «Luqmon Bo'rixonning yozuvchi sifatidagi individual qiyofasini belgilovchi – subektiv faktorda, uning voqelikka estetik munosabatda hayotning nosoz tomonlarini dramatik keskinlik negizida yuzaga chiqaruvchi psixologizm asosida ochib tashlash, estetik tanqid orqali tasdiqlash pafosi, turmush voqealarining butun ziddiyatini, ichki murakkabligini ko'proq fojeaviy qismlar fonida berish orqali badiiy-ijtimoiy tiplar yaratish san'ati ustuvor o'ringa chiqadi»¹, - deya ta'kidlaydi adabiyotshunos D.To'raev. Darhaqiqat, adib talqini ruhiy keskinlikni xarakter ijtimoiy-falsafiy umumlashmasiga singdirish o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Unda hissiyotga yo'g'rilgan mushohada izchilligi, tahlilga evrilgan muhokama tugalligi, obrazga yo'naltirilgan falsafa mantiqiyligi o'z ifodasini topgan. Tasvir plastik qabariqligi, mushohada suvrati qat'iy intizomi, yaxlitlik to'liqligi va tugallanganligi nosir badiiy izlanishlari nafosati hamda yengilligini ta'minlaydi. Yozuvchi ijtimoiy voqelik manzaralari tayanch nuqtasini musavvirona maromda ilg'aydi. Talqin markazini to'g'ri belgilash va falsafiy-ruhiy teranlikda ifodalash muallif adabiy mahoratini sharhlaydi. Til lug'aviy zahirasi boyligi va qudrati san'atkor muhokamasida barqaror so'z birikmalari ustuvorligini tayin etadi. Shu nuqtai nazardan, Luqmon Bo'rixon ijodida badiiy nutq ifoda miqyoslarini kengaytiradigan estetik vositaga evriladi. Inson ruhi hamda ijtimoiy amolini tutashtiradigan poetik tushuncha tadriji aslida materiya qamrovi butunligini taminlashga xizmat qiladi. Ko'ngil, ma'suliyat va ijtimoiy daxldorlik tuyg'usi birikuvi adabiy qahramon umuminsoniy mohiyatini belgilaydi. Adib ijtimoiy-falsafiy umumlashmalarida bo'rtib turadigan xususiyatlardan biri badiiy muqoyasa joriyligi bilan izohlanadi. Obraz analogik tavsifi unga turfa miqyoslardan ijtimoiy-falsafiy-ma'rifiy talqin vositasida reallashadi.

¹ To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. –T.: Universitet, 2001. –B. 103.

2.2. Muammo hamda falsafiy-axloqiy mushohada o‘zaro munosabati

Badiiy asardagi hayot – so‘z vositasida yaratilgan ekan, badiiy til bevosita real fikr va hissiyotning obrazli ifodasidir. Jajji (mikro) obraz, har qanday so‘z kontekstda (boshqa so‘zlar bilan aloqada) hayotiylikni, o‘zining xususiyatini, rangini, hidini, ohangini ko‘rsata oladi. Yozuvchi so‘zning grammatik, leksik, stilistik ma’no ko‘rinishlaridan eng zarur va kerakligini kontekstga muvofiq ishlatadi, y’ani tasvirlayotgan hayot (epizod, obraz, xarakter)ning mohiyatini chuqur ochib beruvchi so‘zlarni tanlaydi. Tanlagan har qanday so‘z adabiy asarda, albatta, ma’lum yukni tashishi lozim bo‘ladi. U tasvirlanayotgan voqeaning haqqoniyligi va to‘laligini, qahramonning his-tuyg‘ulari, kayfiyat va kechinmalarini o‘zida mujassam etishiga – shu yukni qanchalik ko‘targanligiga qarab uning ahamiyati va kuchini belgilaymiz¹, – deya e’tirof etadi munaqqid H.Umurov. Nazariy mushohadada estetika predmeti – so‘zning badiiy vazifadoshligiga mantiqiy urg‘u berilgan. Darhaqiqat, har bir tushuncha o‘z yashash maydoniga ega. Shartli ravishda uni birlamchi (barqaror tasavvur) hamda ikkilamchi (badiiy ifoda) mohiyatga taqsimlash mumkin. Agar dastlabki mohiyatda doimiy, o‘zgarmas belgi-xususiyat-sifat ko‘rsatkichi aks etsa, keyingi qatlamda so‘z hissiy idrok materialiga evriladi. Binobarin, lug‘aviy konstruktsiya hayotiy ilg‘am-poetik fikr-ijodiy umumlashma orasida shakllanadigan badiiy munosabatlar mantiqiy izchilligini ta’minlaydi.

Qissa janri inson idrok etayotgan dunyo ijtimoiy-ruhiy asoslarini to‘liq gavdalandirish imkonini hosil qiladi. Biroq yaxlit badiiy manzara alohida tasvir yo‘nalishiga bo‘ysunmaydi. Odatda, qahramon tasavvurlariga tutashgan tafsilot matni ijodiy talqinni bir-biriga ulash uchun xizmat qiladi. Badiiy vazifadoshlik muayyan chekinishlarni umumiy manzaraga mantiqan payvandlaydi. Aslida tasvir mentaliteti g‘ayrisha’uriy og‘ishlar, kutilmaganda mushohada kengayishi, tuyg‘u tasviri teranligiga ehtiyoj tug‘diradi. Bir qarashda, epik xarakterdagi hodisot bir-biriga o‘zaro bog‘lanmagandek taassurot uyg‘otadi, biroq ular qatidagi ichki tugallik, tadrijiy o‘shish-o‘zgarishlar intizomiy butunlikni ta’minlaydi. Har bir

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002. –B.69.

taassurot asarda o'z og'riq va iztiroblarini shakllantiradi. Qismlarda uyushgan estetik markaz muallif nuqtai nazari mushtarakligini tavsif etadi. Taassurot va kechinma bevosita yoki bilvosita xotira mintaqasida maromiga etadi. Tashqi omillar – voqealar silsilasi tasvirda muqim o'rin egallamaydi, asosiysi, tasavvur va tuyg'uni tasdiqlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, mazkur holatda ifoda markazida tafsilot tabiiyligi turadi. Tutash holda namoyon bo'ladigan voqelik aql-idrokni idora eta olmaydi, biroq u tashqi muhit va shuuriy idrok orasidagi aloqani yo'qotmaydi. Matnga xos xususiyatlar – nutqiy faoliyat ijtimoiy talqin, ruhiy tahlil muqobilligi rivoya ichki taraqqiyotini ta'minlaydi. Aslida badiiy ijod xarakter va tasvir uzviyligidan oziqlanib, ijtimoiy manfaat, poetik g'oya va ijodiy vazifadoshlikni estetik idrokka yig'adi. To'g'rirog'i, qahramon turmush tarzi va muallif nuqtai nazari bir-biriga o'tib turadi, bir-birini oydinlashtiradi hamda tartibga solib turadi. Asarda bevosita idrok etilgan voqelik tasviri qahramonni o'rab turgan muhitga aloqador emas. U tuyg'u va ongning bir-biriga yopishgan, o'zaro chatishgan xarakterini badiiy rasmiylashtiradi. Xotira, umuman, inson ma'naviy dunyosi, shaxs ruhiyati yaqqol ifodasi hisoblanadi. U hodisotni tasvirlamaydi, balki ko'rsatib beradi. Binobarin, psixologik manzara realistik dalolatnomasi jamiyat tipik shart-sharoitlarini badiiy-ijtimoiy nuqtai nazardan dalolatlaydi.

«Adabiy asarning mazmunidagi salmoqdorlik, asarning o'z zamonasi uchun muhim bo'lgan g'oyalar bilan sug'orilganligi yozuvchining xalq hayoti bilan aloqasiga, xalq hayotida bo'layotgan muhim hodisalarni o'z diqqat markazida tutishiga va tasvirlab bera olishiga bog'liqdir. Haqiqiy yozuvchi o'z ijodida xalq uchun muhim bo'lgan masalalarni chetlab o'tolmaydi. Yozuvchi talantining masshtabi (miqyosi) o'z zamonasi uchun, butun insoniyat uchun muhim hayotiy masalalarni ehtiros va badiiy mahorat bilan o'rta qo'ya bilishida ko'rinadi»¹. Binobarin, ijtimoiy aloqa hayotiy ziddiyatlarni hosil qiladigan muhim omil. Unda

¹ Adabiyot nazariyasi. I – jild. –T.: Fan, 1978. –B. 71.

xarakter ruhiyati va jamiyat ehtiyoji, shakllangan an'ana va barqaror mezonlar, tahlil teranligi va tasvir qabariqligi o'zaro birikib ketadi. Inson hayoti aslida voqelik teranligi hosil qiladigan ruhiy kechinma, tasavvur va taassurotlar yig'indisidan iborat. Hodisot uzviyligini bir-biriga mantiqan payvandlash, muayyan qismlarni yetakchi g'oyaviy markazga ulash, ijodiy niyatning muntazam o'zgarib turishiga hamohang ichki tugallikni ta'minlash ijodkor adabiy mahoratini taqozo etadi. Nosir ijtimoiy-falsafiy muhokamlarida an'anaviy rivoya har bir hayotiy tafsilot mohiyatini ochib berishga moyil, batafsil ifodada bir-birini to'ldiruvchi mustaqil ijodiy chizgilar ustuvorligi, harakat va holat bosqichlari uzviyligini jipslashtiradigan muhim estetik vositaga aylanadi. So'z yoki tasavvurning katta badiiy umumlashmani bera olish o'ziga xosligi muallif ijodiy miqyoslari kengligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, «adabiy asarning mazmunidagi salmoqdorlik» hayotiy qamrov darajasi teranligidan oziqlanadi. Hissiy tafakkur hamda estetik ilg'am uyg'unligi ruhiy tafsilot uslubiy-vazifaviy xususiyatlarini sharhlaydi. Muallif aksar o'rinlarda shaxsiy mayl va ijtimoiy amolni bir-biriga qorishtirib yuboradi. Qahramon turmush tarzini qayta tiklash hamda ongda yaxlitlashtirishda san'atkor ikki qatlam – ichki olam va tashqi muhit mutanosibligini tahlil markaziga chiqaradi. Insoniyat – sir-sinoatlarga daxldor subektiv omil, ijtimoiy voqelik hamda hayot manzaralari uning psixologik mohiyatini imtihondan o'tkazadi. O'z navbatida, adabiy talqin shaxsning bevosita atrof-muhitdan olingan taassurotlarini uyushtirishga urinadi va holat-harakat davomiyligini estetik baholashga yo'naltiradi.

«Poetik mohiyatni tushuncha va obraz ibtidosi tadrijiga yo'naltirish badiiy olam hamda badiiy mantiq butunligiga rahna soladi. Binobarin, hissiy idrok jarayonida san'atda mano qatlamlari uyg'unlashuvi hosil bo'ladi. Mavjud holatda mazmun alohidaligi va mantiq muqobilligi bir-biridan uzoqlashadi»¹. Aslida badiiy munosabat ijtimoiy raqobatdan o'sib chiqsagina, poetik modallik markazlashadi. Aniqrog'i, mundarija miqyos qadriyat va vazifadoshlik yaxlitligi kafolati, kuzatish

¹ A.A.Potebnya. Estetika i poetika. –M.: Nauka, 1976. –S. 164.

tezkorligi va tasvir jonliligi uni qisman to'ldiradigan tizimga aylanadi. Biroq ijod mantig'i real mohiyatni jiddiy o'zgartirishi yangi aloqa va kommunikatsiya maydonini tayin etadi. Unda inson ijtimoiy-falsafiy va hissiy-ruhiy tajribasi muayyanlashadi. Ifoda tig'izligi va analogik talqin ziddiyatida xoslangan mushohada nisbiyligi taraqqiyoti obektiv daxlsizlikni dalolatlaydi.

Adabiy talqin tadriji hayotiy vaziyatni taqqoslash, hodisot xarakterli qirralarini mantiqan urg'ulash hamda estetik baholash yo'siniga tutashadi. Aynan badiiy o'lcham rang-barangligi tahlil tamoyillari teranlashuviga sharoit hozirlaydi. Unda inson madaniyati yaxlitligi nafis va ongli ijodiy munosabat ziddiyatini tavsiflaydi. Unda ezgu amol va axloqiy taqdimot sezim hamda hayot maromini tasdiqlaydi. So'z vositasida jonlantirilgan ifoda tasvir hamda tasavvur aloqadorligini muayyan nuqtaga yig'adi. Binobarin, har bir adabiy talqinda o'ziga xoslik etakchilik qilishini hisobga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. To'g'rirog'i, lug'aviy birlikda kuzatiladigan doimiy o'zgarmas belgi-xususiyat ifodasi ijodiy muhokamada nisbiy erkinlik darajasiga bog'lanadi. Shu ma'noda, adabiy talqin o'ziga xosligi materiya mohiyatini to'ldiradigan, boyitadigan hamda tartibga solib turadigan yetakchi estetik tushunchalar sirasiga kiradi.

Luqmon Bo'rixon navbatdagi asari – «Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi» qissasi (2014) ijtimoiy-ruhiy munosabat tahlilida teranlashganligini dalolatlaydi. Asar joriy kunda avj olgan illatlar adabiy talqinini muhokamaga tortadi. Voqelik shiddati ma'no ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasini sifatlaydi. Muallif sharoit taqozosi va uning inson ma'naviyati – maslagiga uzviy ta'sirini qalamga oladi. Bir qarashda, matn leytmotivida Latif shaxsi markaziy planga chiqqandek taassurot uyg'otsa-da, adib inson axloqi hamda idealini umumlashtirish maqsadinini ko'zlaydi. Tahlil boshdan-oyoq tugal jamiyat haetini qamrab oladi. Hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini umumlashtirish asnosida yozuvchi shaxs butunligini ochib berishga intiladi. G'ani, Amira, Sherbek, Abray lochin, Rustam, Nabi xarakterlari yorqinligi shular sirasiga kiradi. Har bir obraz asarda muayyan tabaqa va qatlamlarning maqsad-intilishlarini o'zida tajassum etadi. Adib jiddiy

muvaffaqiyati qahramon qiyofasini yoritishda tipik sharoit takomilini mantiqan bir-biriga ulay olish mahoratida ko'rsatadi.

«Badiiyat talablari deganda biz shuni nazarda tutamizki, asar g'oyasini chuqur yoritish uchun talab qilingan barcha voqealar, fikrlar, tuyg'ular, kuzatishlar, tafsilotlar bir nuqtaga yig'ib berilishi kerak, Otaqo'zi esa shu nuqta vazifasini o'taydi.

Hayot taraqqiyoti taqozosi deganda shuni anglaymizki, roman voqealarining ishtirokchilari qilib olingan shaxslar ham, kitobxonlar ham shiddatli, jonli, real tuyg'ular, kechinmalar, haqqoniy mulohazalar dunyosida yashaydi, kurashadi.

Luqmon Bo'rixon asarlarida mana shu ikki omil – hayotiylik va badiiylik bir-biriga mohirona qo'shib olib borilgani tufayli Aziz qalblarni to'lqinlantiradigan barkamol badiiy tip darajasiga ko'tarilgan. Yo'q, shunchaki to'lqinlantiribgina qolmaydi. Gohida insoniy saxovati bilan dillarni xushnud etadi, gohida ijobiy fazilati bilan, topqirligi, uddaburologi, ishbilarmonligi bilan samimiy hurmatu muhabbatimizni qozonadi, gohida g'ayritabiiy xatti-harakatlari bilan ko'nglimizni g'ashqiladi, ranjitadi, gohida... Eh-he, uning shaxsiyati, faoliyati, intilish-izlanishlari, kurashlaridan kelib chiqadigan g'oyatda ziddiyatli, qarama-qarshi, murakkab mulohazalar, tuyg'ular, hislar oqimning mohiyatini anglash oson emas va mana shu oqim asarning birinchi sahifalaridanoq bizni o'ziga jalb qilib, tortib oladi-da, to qahramon bilan yurmaydi, vujudimizni, qalbimizni go'yo zabt etib, o'z mulkiga, o'z olamiga, o'z harakat, faoliyat, maydoniga aylantirganday taassurot tug'iladi»¹. Darhaqiqat, badiiyat talabi va hayot taraqqiyoti taqozosi bir-birini to'ldiradigan tushunchalar, real mohiyatning estetik g'oyaga evrilishi murakkab jarayon, unda ijodiy talqin ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasini tavsiflaydi hamda muayyan qadriyaviy mezonlarni dalolatlaydi. Aslida poetik muhokama ijodkor fitratidan jamiyat ma'naviyatiga ko'chadigan tizim hisoblanadi. Adabiy talqinda muallif xarakter tadrijini ijtimoiy-ruhiy munosabatlarga singdirib yuboradi va muhim falsafiy-badiiy umumlashmalar yasaydi.

¹ Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007. –B.86.134-135.

Ruhiy kechinma obektiv voqelik va badiiy ifoda uyg'unligidan tashkil topadi. Joriy reallikdan ijodiy imkoniyat hosil qilish aslida san'at mohiyatini ta'minlaydi. O'z navbatida, hodisot uzviyligini mantiqan tasdiqlaydigan tasvir mustaqilligida haqqoniylik hamda adabiy talqin birlashadi. Zotan, muvozanat zahirida yonma-yon rivojlanib boradigan poetik aloqada jamiyat yo'nalishi va alohida inson tabiati shartli tugallikka erishadi. Vaholanki, har qanday ijtimoiy-maishiy munosabat ruhiy ziddiyatlarga oydinlik kiritadi, adabiy talqin keskinligi esa hayot haqiqatini tanqidiy baholash imkoniyatini oshiradi. Joriy holat, birinchidan, jamiyatda mavjud barcha munosabatlarni qamrab olishga yo'l ochadi, ikkinchidan, bezovta ko'ngil sarzanishlarini tahlil qilishga sharoit hozirlaydi, uchinchidan, ma'naviy-axloqiy mezonlarni barqarorlashtirish, muallif ijodiy pozitsiyasi va yozuvchi badiiy niyatini to'laqonli ravishda yanada oydinlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Luqmon Bo'rixonning shaxs va ijodkor sifatida, xususan, nosir sifatidagi shakllanishi milliy istiqlol ma'naviyatiga tutashadi. Adib dastlabki hikoyalaridan qissa va romanlargacha yangi tafakkur epkinlari ko'zga tashlanadi. Yozuvchi bir qator hikoyalarida kuzatilgan g'oyaviy-estetik zalvor joriy holatni dalolatlaydi. U ilk mashqlaridayoq realistik tasvir imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi, inson va jamiyat munosabatlari ustidan kinoyaviy-parodik hukm chiqarish ijodiy tamoyil darajasiga ko'tarilgan. Adib ibratli qahramon yaratish maqsadini ko'zlagani holda obrazga o'z tajribasidan kelib chiqib yondashadi, unga o'zining o'y-hislarini singdirib yuboradi. Bu esa Luqmon Bo'rixonning ijodda mavhum g'oyadan emas, real hayotdan kelib chiqish ehtiyojini sezayotgani, vujudida sanatkor va faylasuf qoni oqayotganligidan dalolatdir. Normal ijodiy o'sishda ijodiy izlanishlar qo'l keladi. Adib ijodiy tamoyillaridagi o'zgarishlar ko'proq tashqi tasir natijasida yuz beradi. Xususan, o'zi istagan ideal jamiyatga etish umidi uning adabiy tabdilida o'zgacha qiyofada jilolanadi.

Badiiy determinizm usuli teranligi (ifoda yo'sinlari tezkor o'rin almashinuvlari) kitobxonga matnni yaxlit anglash imkonini bermaydi. Turfa badiiy

jihatlar aniq maqsadga yo'naltirilgan tahlil boshqaruvchiligi atrofida uyushadi. «Muallifning qahramonga munosabati, tabiiyki, neytral bo'lishi mumkin emas. Umuman, buni talab qilish ham noto'g'ri bo'lur edi, zero, yozuvchi ham bir inson sifatida kimnidir suyishga, kimdandir nafratlanishga haqli. Bu o'rinda talab qilinishi mumkin bo'lgan birgina narsa – meyor, toki: birinchidan, muallifning munosabati qahramon ichki mantig'iga zid holatlarni keltirib chiqarmasin; ikkinchidan, o'quvchi qahramonni chetdan xolis kuzatib, unga o'zi o'z bahosini bera olsun»¹.

Janr intizomida matn va tafsilotlararo munosabat tuyg'uni ongga payvandlaydi. Bir tomondan, materiyaga ko'chgan poetik g'oya shartliligi, ikkinchi tomondan, tasvir predmeti daxlsizligi, uchinchi tomondan, falsafa va mantiq nisbiy mustaqilligi, to'rtinchi tomondan, falsafiy-ijtimoiy umumlashma joriyligi asosiy va to'ldiruvchi g'oyalarni bir-biriga ulaydi. Binobarin, adabiy talqinda badiiy shakl hamda duneqarash orasida barqarorlashadigan mano tugallanmaganligi asosiy o'ringa ko'tariladi. Aniqrog'i, tasvir ruhiyatida ijodiy majmua xos belgisi etakchilik qiladi.

Muhitdan inson tiynatiga ko'chgan yetakchi tasvir unsurlari bugungi qissa qiyofasini to'la idrok etishga zamin hozirlaydi. Negaki, inson xarakteri turfa va o'zgaruvchandir. O'zligini anglashga, tushunishga intilayotgan zamondosh inson sajiyasi bugungi qissa mavzu-mundarijasi hisoblanadi. Inson tafakkuri insoniyat tafakkuriga ta'sir o'tkazadi. Yozuvchi jamiyat ichida, «qaynoq hayot qo'ynida» turib ruhiy olamimizni ifodalashga kirishar ekan, inson degan murakkab va ko'p qirrali shaxsning butun tashqi va ichki dunyosini to'la-to'kis idroklab berishga ba'zan ojizlik qiladi. Chunki har bir ko'ngil o'zining yashash maydoni chegarasiga ega. Muvozanat buzildimi, demak uning aksi ruhiyatda o'z aksni topadi.

Luqmon Bo'rixon qissalarini kuzatganda uning chin ma'noda ijodkor shaxs, izlanuvchan, yangilikka o'ch inson ekanligiga amin bo'lamiz. Uning hatto bir janr doirasidagi asarlari ham turfa janr xususiyatlarini namoyon etishi, tasvir

¹ Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. –T.: «Sharq», 2004, -B. 171.

vositalariyu ifoda yo'sini rang-barangligi shunga dalolat qiladi. Adib milliy adabiyotimizda jiddiy yangilanayotgan janr imkoniyatlarini to'la namoyon qilishga intilganki, uning tajribalari o'zbek nasri rivoji uchun muhim ahamiyatga molik edi. Izlanuvchan adib xorijiy adabiyotlarga xos usul va vositalarni dadillik bilan adabiyotimizga tadbiq qildi, tajriba qilishdan, bu yo'lda muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan cho'chib o'tirmaydi. Eng muhimi, adib g'arb adabiyotiga xos usulu vositalarni milliy adabiyotimiz an'analari bilan uyg'unlashtirishga intiladi, bu narsa ularning adabiyotimizda muqim o'rinishib qolishiga puxta asos yaratadi.

Yozuvchi mahorati shundaki, hayot materialini badiiy aks ettirishda rang-barang tasvir vositalaridan nechog'li unumli foydalana olganligi bilan o'lchanadi. Qissa janri cheksiz imkoniyatlarga egaligi bilan boshqa adabiy janrlardan jiddiy tavofutlanadi. Yozuvchi unda inson hayotining solnomasini mufassal ifodalashga diqqat qaratadi. Boshqacha aytganda, odamzot takomilidagi muhim evrilishlar badiiy shakl miqyoslarini belgilab beradi. Epik tasvir turfaligi sujet qismlarini shartli va teran mohiyat sari yo'naltiradi. Natijada odamzot turmush tarzi haqqoniyligi hamda ijtimoiy-psixologik asoslari badiiy tasvirni yaxlitlashtiradi.

UMUMIY XULOSALAR

XX asr adog'ida O'zbekiston misli ko'rilmagan taraqqiyot yo'liga qadam tashladi. Ayniqsa, istiqlol davri solnomasida janriy-shakliy izlanishlar jiddiy takomillashib, an'anaviy hamda yangicha talqin sintezi bir-birini to'ldiruvchi mohiyatga aylanayozdi. Globallashuv sharoitida ijtimoiy ong barqarorlashgan mavjud andozalarni sindirish va turg'unlikka mahkum etilgan badiiy tafakkurni o'zgartirishni maqsad qilib qo'ydi. Keskin evrilishlar ham tuyg'u, ham ongda hosil bo'ladigan islohotlarni idrok etish va jaraen falsafiy-ijtimoiy teranligini umumlashtirish taomillarini uyushtiradi. Qissachilik taraqqiyoti joriy bosqichiga xos davr yig'ma metodi har bir san'atkor shaxsi muhrini o'zida jamuljam eta oldi. Zotan mavjud davr adabiy mohiyati yagona hukmron mafkuraviy tazyiq iskanjasidan qutulgan, plyural qarashlarga keng yo'l ochilganligi bilan xarakterlanadi. Hayotiy ehtiyoj o'ziyoq o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan e'tiboran jiddiy o'zgarishlarni taqozoladi. Natijada, nafaqat milliy-badiiy ong yangilandi, balki tig'izlashgan estetik tafakkurda miqyos va nisbat uyg'unligi, tasvir va ifoda, talqinu tahlil o'rindoshligi yuzaga keldi.

Adabiyot yetakchi estetik belgilaridan biri badiiy yaxlitlikda namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asar mukammal poetik tizim bo'lishi uchun mohiyat tugalligi ta'minlanmog'i lozim. Bu esa janr, matn va adabiy tizim orasida shakllanadigan mantiqiy aloqa uzviyligini taqozo etadi. Demakki, ijod falsafasiga ko'ra chambarchaslik qonuniyati bir jihatdan, qadriyaviy mezon va biosotsiologik maydon ichki munosabatiga bog'liq. Ayni paytda, ma'no ichki butunligi yonmayon joylashgan badiiy shakl muqarrarligidan tashqari, ularning bir-biridan keskinlashgan tafovutini ham talab etadi. Negaki, badiiy ijod jarayonida janr poetik uyg'unlikni ta'minlovchi etakchi omil sanaladi. Agar biz Shaxs maqomi tabiat va jamiyat uzviy aloqadorligini birlashtirishini nazarda tutsak, joriy holatni badiiy tizimga muqoyasa qilishimiz oson kechadi. Aynan poetik butunlik zalvori janr

turg'unligi, tasvir idroki va ruhiy kechinma hayotiyliги o'zaro aloqasini tutashtiradi.

Shu ma'noda, janr ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasiga muvofiq, muayyan davr ruhiyatini ifodalaydi. Unda hayotiy maishat teranligi ijodkor adabiy talqini o'ziga xosligiga tutashadi. To'g'rirog'i, muallif nazorati ma'no munosabatlari tahlilini boshqaradi. Mohiyat va g'oya yaxlitligi daraja ko'rsatkichi esa badiiy munosabatlar uzluksizligini qamraydi. Shu nuqtai nazardan, badiiy mushohada mantiqiy taraqqiyoti estetik qadriyatga evrilishi murakkab tizimni asoslaydi. Aynan turfa adabiy qonuniyat va tamoyillar ijodiy faoliyatda butunlik kasb etishini hisobga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Aslida ma'no ichki aloqalarini ilg'ash, uning yangi qirralarini kashf etish hamda faol ruhiy munosabatni shakllantirish o'ziga xos halqani tashkil qiladi. Voqelikni idrok etish intizomini **badiiy shakl** tabiati belgilaydi. Demak, milliy istiqlol davri o'zbek adabiyoti zabardast vakili Luqmon Bo'rixon qissalarida hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini nazariy baholash muhim ehtiyoj hosilasi sanaladi.

Adib qissachiligi poetikasida kuzatiladigan muhim xususiyat tasavvur-tushuncha-tafsilot butunligini hayotiy qamrov ifodasiga yo'naltira olish mahorati bilan izohlanadi. Muallif adabiy talqinida so'z aniq-tarixiy vaziyatni uyushtirish, falsafiy mushohadani mantiqiy urg'ulash hamda mohiyatni kinoyaviy-parodik dalolatlash vositasiga aylanadi. To'g'rirog'i, lug'aviy birliklarni yangi **ijtimoiy-ruhiy muhokamaga** yo'naltirish yozuvchi adabiy mahoratini asoslaydi. Muntazam ravishda g'oyadan tahlilga o'tib turish jarayoni muammo va g'oya zalvori, shakl va ma'no yaxlitligi tanlovi bilan tutashadi. Unda g'oyaviy va estetik qadriyat umumlashgan tarzda jilvalanadi. Borliq konsepsiyasi, mavzu qamrovi va matn intizomini muayyan nuqtaga yig'ish hamda unga nisbatan sog'lom ijodiy munosabatni shakllantirish mushohada falsafiy-mantiqiy teranligini tashkil etadi.

«Xizr ko'rgan yigit» qissasida kuzatiladigan muhim jihatlardan biri shakliy tadqiq o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Unda asosan ong monologik boshqaruvi yetakchilik qiladi. Asar ifoda tipida namoyon daraja ko'rsatkichi tahlil

imkoniyatlarini kengaytiradi. Uslubiy manera mustaqilligiga chek qo'yadigan holat ijodga qo'shimcha salohiyat yuklaydi. Jumladan, kinoya, kesatq va piching vazifadoshligi, ijtimoiylikdan badiiylikka qadar o'sib boradigan estetik ideal tahlili, real voqelik, davr ruhiyati hamda shaxs talqinida butunlikka erishish istagi asar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

“Bir tomchi yosh” qissasida ijodkor odam o'zining ijod olamida yashaydiganligini, tabiat manzaralari, mehr va muhabbatdan ilhomlanishini ko'rsatsa, do'stlik, aka-ukachilik kabi muqaddas tushunchalarni qadrlamaslikni yanga, O'ktam obrazlari orqal ochib beradi.

«Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi» sarguzasht qissasi badiiylik mezonlarini belgilaydigan xos xususiyatlardan biri ijtimoiy yo'naltirilganlik va axloqiy qadriyat yaxlitligi tanlovi bilan bog'liq. Muallif inson ma'naviy borlig'ini tadqiq etarkan, voqelikni badiiy idrok etish mezonini shakllantiradi. Aniqrog'i, yozuvchi odamzod hayoti umummohiyatini ijodiy talqin sahniga chiqaradi. Unda maishat, davr va shaxs manfaatlari qorishiq tarzda namoyon bo'ladi. Badiiy dunyoqarash sajiyasi va jamiyat ahvoli ruhiyasi manzarasi poetik uyg'unligi falsafiy muhokamani tadqiq sahniga chiqaradi. Muallif diyonat, oqibat va e'tiqod yanglig' masalalar tahlilini turfa taqdir chiziqlarini muqoyasa qilish vositasida mantiqan dalolatlaydi.

Bitiruv-malakaviy ishda tanlangan mavzu yuzasidan quyidagi **umumiy xulosalarga** kelindi:

- adib qissalari mundariyasi hayotiy material, badiiy mazmun va adabiy talqin ifoda bosqichlarini estetik idrokda markazlashtiradi;
- Luqmon Bo'rixon badiiy izlanishlarida kinoya, kesatik hamda piching kabi tasvir vositalari adabiy talqinga tenglashadi;
- yozuvchi muhokamasida inson va jamiyat maishati ziddiyatlari tasvir quyuqligi, estetik idrok tarangligi hamda ruhiy tahlil teranligi, ifoda ko'p qatlamliligi bir-birini aniqlovchi badiiy mezonlarga evriladi. Shaxs va jamiyat munosabatlarida oydinlashadigan davr ruhiyati manzaralari qahramon qismatida

tasdiqlanadigan ma'naviy konsepsiyani ilgari surish barobarida inson qadriyaviy mezonlarini ham oydinlashtirishga intiladi;

- badiiy shakl tadriji ma'no hajmi tanlovi, ijodiy bo'yoqdorlik va uyushganlik darajasi o'zgaras asosiy qonuniyatlariga borib taqaladi;

- adib adabiy tabdilida ijtimoiy keskinlik tazodi - yozuvchi ijodida badiiy muhokama joriyligi jamiyat tushuncha hamda g'oyalariga tanqidiy munosabatdan hosil bo'ladi. Zotan, ong-tuyg'uda qotishga moyillashgan qarashlarni sindirishga intilish uning ustuvor xususiyati;

- inson ichki dunyosi tahlili ijtimoiy munosabatlarning shaxs ruhiyatiga uzluksiz tasiri bilan o'lchanmaydi, balki uning idroki, tuyg'usi va dunyoqarashi xoslanganlik darajasida namoyon bo'ladi. Shu manoda, har bir qahramon ma'naviy-estetik konsepsiyasiga erishish janr ijodiy tadriji va adabiy mohiyat amaliy ishlanganlik tajribasiga tutashadi;

- so'zning badiiy nutq takomilida tutgan mavqeini mustahkamlash, adabiy matn shakllanish tamoyillarini aniqlash va g'oyaviy tizim tugal yaxlitligiga erishish Luqmon Bo'rixon ijodi o'ziga xosligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009.
3. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyot. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. –T.: Fan, 1979.
5. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. –T.: O'zbekiston, 1997.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002.
7. Boltaboyev H. Mumtoz so'z sehri. –T.: Adolat, 2004.
8. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. –T.: Fan, 2006.
9. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
10. Karimov B. Yangilanish sog'inchi. –T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.
11. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: O'zbekiston, 2008.
12. Mamajonov S. Saylanma. – T.: Adabiyot va sa'nat, 1981.
13. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
14. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
15. Mustaqillik davri adabiyoti. –T.: Adabiyot va san'at, 2006.
16. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – T.: Adabiyot va san'at, 1980.
17. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma'naviyat, 2000.
18. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.
19. Umurov H. Tahlil san'ati. –T.: Adabiyot va san'at, 1978.
20. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002.
21. Xalizev V.E. Teoriya literatur?. Izd. 3. – M.: V'sshaya shkola, 2002.
22. Parandovskiy Yan. So'z kimyosi / Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: Ma'naviyat, 2010.

23. Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. –T.: Fan, 2006.
24. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T.: Sharq, 2007.
25. Rizaev Sh. Ma’naviyat manzillari. –T.: Adabiyot va san’at, 2008.
26. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.
27. Sodiqov S. Ijodning o‘ttiz lahzasi. –T.: Sharq, 2005.
28. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.
29. To‘raev D. Davr va ijod ma’suliyati. –T.: Yangi asr avlodi. 2004.
30. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
31. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Fan, 2007.
32. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T.: Akademnashr, 2013.
33. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Fan, 2007.
34. <http://www.literature.uz/>;
35. <http://www.ziyouz.com/>.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	
I-BOB. FALSAFIY KONSEPSIYANING JANRIY XUSUSIYATLARI	
1.1. Poetik g'oya namoyishida badiiy yaxlitlikning tutgan o'rni	
1.2. Faol estetik munosabat ijtimoiy-ruhiy asos sifatida	
II-BOB. ADIB QISSALARIDA MUHIT VA INSON ADABIY TALQINI.....	
2.1. Matnda shaxs va jamiyat munosabatlari ijodiy tabdili	
2.2. Muammo hamda falsafiy-axloqiy mushohada o'zaro munosabati.....	
UMUMIY XULOSALAR.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	